



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
talim vazirligi**

Namangan Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi

4-bosqich talabasi


Omonov Dilshodjonbekmirzo

Umarali xoji o‘g‘lining

**NAQSHBANDIYA TARIQATINING IJTIMOIIY-
PEDAGOGIK MOHIYATI**

mavzusidagi

Bitiruv Malakaviy Ishi



Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi U.Mansurov

NAMANGAN-2014

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-7
I BOB. Tasavvuf va inson kamolati.	
1.1. Bahouddin Naqshband-yangi tasavvuf ta'limotining asoschisi.....	8-14
1.2. Naqshbandiya Tariqatining tasavvuf ta'limotida o'ziga xos o'rni.....	14-26
II BOB. Naqshbandiya tariqatini o'rganish va o'rgatish texnologiyasi yoki ustoz shogird munosabatlari.	
2.1. Bahouddin Naqshband ta'limiy-ahloqiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari.....	27-37
2.2. Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-pedagogik mohiyati.....	38-48
Xulosa.....	49-55
Foydalanilgan adabiyotlar.....	56-58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil, xuquqiy-demokratik, ma'naviy barkamol fuqarolar jamiyati qurish yo'lida borayotgan vatanimizda uning porloq kelajagi davlatimizning ustivor siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buni biz kundalik faoliyatimizning barcha jabhalarida dildan xis qilayotirmiz. Chunonchi mamlakatimiz o'zluksiz ta'limining hamma bo'g'inlari I.A.Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi, «Ta'lim to'g'risida»gi konun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan islohotlar hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi¹. Mazkur dasturiy hujjatlar nafaqat mamlakatimizda balki talay rivojlangan davlatlarning rahbarlari ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat arboblari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning boisi shundaki ushbu xujjatlar asosida barkamol shaxs tarbiyasidek olijanob maqsad yotadi. Barkamol yosh avlodni tarbiyalash, uning ongi tafakurini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi umrboqiy qadriyatlarini, e'tiqodiy udum-an'analari xal qiluvchi ahamiyatiga molikdir. Bular hozirgi kunda bizni ikki jihati bilan o'ziga jalb qiladi. Birinchidan, ular bir vaqtlar jahon sivilizatsiyasi fanining rivojlanishiga turtki va poydevor bo'lgan bo'lsa, hozirgi mustaqillik sharoitiga yosh avlodni milliy g'urur va ruhiy jihatdan tarbiyalashda muhim ma'naviy omil hisoblanadi. Ikkinchidan biz XIX-XX asrning suronli alg'ov-dalg'ovida kommunistik tuzum sharoitida o'zligimizni unutib butun bir avlod tarbiyasida milliy qiyofa, o'ziga xos axloq odobimizni anchayin unutib yuborganimizni ham bugungi kunda ularni e'zozlab o'rganishimizni taqozo qiladi. Istiqlol yo'lidan shahdam odimlar bilan ilgarilab borayotgan Respublikamizda ma'naviy-axloqiy, ilmiy-irfoniy merosga sidqu sadoqat bilan qarayotganligiga butun jahon jamoatchiligi tan bermoqda. Buning ifodasi sifatida Imom Muhammad Ibn Ismoil Buxoriy, Al-Farg'oniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Al-Moturudiy, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Xoja Abdulhomid G'ijduvoni, Bahouddin Naqshbandiy kabi ulug' shaxslarning

¹ Ta'lim to'g'risida qonun «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli to'plamda. -Toshkent, 1998 yil. –B. 7.

tavallud kunlarini mamlakatimizda va jahonda keng nishonlashi, ularga bag'ishlab purvikor ziyoratgohlarni tiklash, hamda ma'naviy ilmiy merosini asarlarini nashr qilishga davlat miqiyosida e'tibor berishi milliy merosimizni o'rganishga ulkan turtki bo'ldi.

Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan g'oyat bebaxo va o'lkan ma'naviy-madaniy, ilmiy-pedagogik me'rosini pedagogik jihatlarini umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ulkan xazina har jihatdan ma'naviy-ma'rifiy, tarixi va pedagogik jihatdan yosh avlodda mustaqillika nisbatan ixlos, imom-e'tiqodni shakllantirishda vosita hisoblanadi. Milliy merosimizni yaxlit qadriyat sifatida har jihatdan tadqiq qilish dolzarb muammo va ilmiy tamoyil hisoblanmog'i lozim. Bu mumtoz, badiiy adabiyot hamda irfoniy-ilohiy merosimizga ham taalluklidir. Muborak ona zaminimizni ettinchi asrlarda arablar tomonidan zabt etilib va islomiy e'tiqodni ular shuuriga amaliy ilmiy, ma'naviy madaniy xayotiga kuch bilan singdirilganligi inobatga olinsa, o'n turt asrlik taqdirimizning shu din zamirida tuganligini anglash qiyin emas. Shu davrlar mobaynida islomiy talablar antiqa udumlarimizda, turmush tarzimizga singib ketib, ularning g'oyaviy va axloqiy asosini belgilab kelmoqda. Ayniqsa, islomiy g'oyalar og'zaki va yozma badiiy adabiyotda axloq, ta'lim tarbiyada xayotbaxsh g'oyalar sifatida singib kelgan, hamda xalqimiz iymon-e'tiqodini belgilagan.

«Inson e'tiqodsiz» imonsiz yashay olmaydi. Chunki komil inson va sobit e'tiqod jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bu borada islom dini katta ahamiyatga ega», - deydi. I.Karimov². Millatimiz madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik merosini islom dinidan, uning mafkurasidan o'zib olib tadqiq hamda talqin qilish mumkin emas. «...Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri xolda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar xayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz», deb ta'kidlaydi I.A.Karimov³.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -B. 46.

³ Karimov I.A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda. -Toshkent: Sharq, 1999. -B. 21.

Milliy istiqlol ma'naviyatimiz buyuk adibu fozillarimiz, adabiy-ilmiy, pedagogik merosimizni xaqqoniy ravishda ob'ektiv o'rganish imkonini bergan ekan, bundan to'g'ri foydalanmog'imiz, o'sha ulug' allomalar tafakkuri mevalarini bugungi mafkura va milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishga xizmat qildirmog'imiz lozim. Mumtoz ma'rifiy fikrlar va atamalardagi pardalab aytilagan, botiniy fikrlarning bayon qilish usullari (texnologiyasi) orqali kishilar ongi, shuuriga etkazishning o'ziga xos tomonlaridan hozirgi vaqtda foydalanish orqali yosh avlodga tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishning optimal yo'llarini belgilashimiz lozim bo'ladi: «Negaki donishmand ajdodlarimiz bo'lik fikrlarni shu atamalar bag'riga jo etish orqali o'zlarini joxil xukmronlar va mutaasib shayxu zoxidlar xujumidan muxofaza qilishga muyassar bo'lganlar» SHu bilan birga ular o'z fikrlarini kishilarga etkazish borasida sexrli, o'ta ta'sirli texnologiyalar ishlatganlar. Mumtoz merosimizni o'rganishdagi bizning kamtarona maqsadimiz ularning o'z g'oya, fikrlar tarbiyaviy tomirini o'ziga xos jihatlaridan foydalanib milliy mufkurani, jamiyatimiz axloqiy talablarini yoshlarimizga singdirish uchun foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Mustaqil davlatimizning har tomonlama iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy rivojlanishi yoshlarning axloqiy, yuksak insoniy fazilatlariga bog'likdir. Bu sifatlari kishilarimizning xalq, Vatan yo'lida tinmay mehnat qilishlarini ta'minlaydi, hamda o'z mehnati samarasidan g'ururlanish xislatlarini tarbiyalaydi.

Yoshlarda milliy g'urning shakllanishi milliy zaminda muxitda yanada tezlashadi. Shuning uchun milliy qadriyatlarini chuqur bilmasdan milliy g'urur shakllanishi qiyin kechadi. Milliy qadriyatlarimiz milliy g'urni oziqlantiruvchi bosh ildizdir. Yoshlarni xalol-pok, xalq, vatan yo'lida fidoyilik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar ta'mirchan vosita hisoblanadi.

O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi⁴.

Shulardan kelib chiqib, biz ilmiy tadqiqotimiz mavzusini «Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-pedagogik mohiyati» deb nomladik. Mazkur mavzu dolzarb bo'lishi bilan birga, o'ta murakkab va serqirra hamdir.

Tadqiqotning maqsadi: Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- mavzuning mazmunini ijtimoiy-falsafiy, pedagogik-psixolik tadqiqotlarda ishlanganligini o'rganish;
- mumtoz merosimizning komil inson to'g'risidagi g'oyalari taxlil qilish;
- Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini ochish;
- Naqshbandiya tariqatidan ta'lim-tarbiyada foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning o'rganilishi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov 2003 yil 28 noyabr kuni ulug' alloma Abdulxoliq G'ijduvoniylar tavalludining 900 yilligiga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Hozirgi tahlikali dunyoda, turli nizo va adovatlar hali-beri barham topmagan murakkab bir vaziyatda Naqshband bobomizning millati, tili va dinidan qat'i nazar inson zotini aziz va mukarram bilish, o'zaro mehr-oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirish, etim-esirlarning boshini silash, muxtojlar yordam berish kabi ezgu da'vatlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda». Darhaqiqat, tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi mazkur ta'limotni demokratlashtirgan ulug' alloma Bahouddin Naqshband musulmon olamida o'zining barkamol inson haqidagi g'oyalari bilan mashhurdir. Naqshbandiy tariqati ta'limotining g'oyalari milliy istiqlol mafkurasi uchun negiz, poydevor

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Туркистон. 2014. 8 февраль.

bo'lganligi uchun ularni tadqiq etish dolzarb masaladir.

Sobiq Ittifoq davrida Bahouddin Naqshband merosi G'arb mamlakatlaridagidek chuqur o'rganilmagan bo'lsa ham V.A.Gordlevskiy, E.E.Bertels kabi sharqshunoslar tomonidai sharq tasavvufi doirasida naqshbandiya tariqati borasida ayrim ma'lumotlar qayd etib o'tilgan. O'zbek olimlaridan I.M.Mo'minov, V.Y.Zoxidov, I.O.Sultonov, N.M.Mallaev, Sh.M.SHomammedov, A.P.Qayumov, M.M.Xayrullaev, E.Rustamov kabilar ham mazkur ta'limot xususida o'z fikrlarini bildirganlar.

Biroq bunday yondashuv "kommunistik mafkura" talablariga muvofiq alohida risola tarzida namoyon etilmay, balki Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ijodi yuzasidan yaratilgan asarlarda qismangina bayon etilgan. Shunga qaramay, aynan mana shu asarlar Naqshbandiya ta'limoti mazmunidan bizlarni xabardor etgan. Bahouddin Naqshband merosini ilmiy asosda maxsus o'rganish va uni ta'lim sohasiga tadbiq etishga yo'naltirilgan faoliyat I.Sulton, M.M.Xayrullaev, K.Hoshimov, A.Zunnunov, I.Iskandarov, O.Mirzaev, S.Nishonova, M.Inomova, J.Hasanboev, H.Homidiy, A.Munavvarov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning o'zbek xalqi tarixi, ma'naviy merosini o'rganishga hamda ta'lim-tarbiya sohasiga, milliy g'oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni, xalq ta'limi muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida ma'naviy merosimizdan foydalanish va uning milliy tarbiyadagi o'rni haqidagi hujjatlari,- davlat ta'lim standartlari o'quv dasturi, darslik va qo'llanmalar, mavzuga oid tarixiy, falsafiy, ilmiy-pedagogik manbalar.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Tasavvuf va inson kamolati.

1.1. Bahouddin Naqshband-yangi tasavvuf ta'limotining asoschisi.

Manbalar asosida Bahouddinning tavalludi hijriy 718 yili muharram oyida va rihlati hijriy 791 yili robi'ul avval. oyining uchinchisi, dushanba kechasi ekanligi ko'rsatilgan. Bahouddinga tarbiya bergan ustozlar shartli ravishda ikkiga ajratilgan:⁵

1.Zohiran, bevosita muloqotda bo'lib tarbiya bergan ustozlar.

2.Bevosita uchrashmasdan, ruhlari orqali tarbiya bergan uvaysiy ustozlar.

Birinchi guruhga Xoja Muhammad Boboi Samosiy, Xalil Og'a, Amir Kulol, Orif Digtaroniy, Qusam SHayx va Hadisshunoslikni o'rgatgan ustozlari kiradilar.

«Rashohot»da Bahouddin Amir Kuloldan so'ng Orif Digtaroniy va Qusam Shayxdan va «keyinchalik esa, Xalil Otadan tarbiya olgan» deyilgani voqealar mantiqiga mos kelmaydi. Chunki «Maqomot»da Naqshbandning o'zi keltirgan naqli bu voqeaning boshqa tarzda bo'lganligini ko'rsatadi: Bahouddin Samosiydan keyin Samarqanddagi shayxlardan ta'lim oladi. Keyin tushida Hakim ota-Sulaymon Boqirg'oniyning ishorasi bilan turk shayxlaridan Xalil Otadan 12 yil saboq olgan. Keyin Amir Kulol, 7 yil Orif Digtaroniy, 5 oy Qusam SHayxdan tarbiya olgan.

Ammo haqiqat yuzasidan shuni ta'kidlash lozimki, Bahouddin Uvaysiy bo'lgan va G'ijduvoniyaning tarbiyat topgan. Naqshbandiyning Uvaysiylikni o'zidan oldin o'tgan G'ijduvoni (vafoti 1180 yoki 1220) ruhi va madadidan tarbiyat topganligi bilan izohlanadi. Manbalar taxlili asosida xojaning birinchi ruhiy holatining o'zgarishiga sabab Xoja Ali Romitaniy ruhi bo'lganini, uning Naqshband o'zini «Biz Hazrat Azizoning muridimiz» deb ta'kidlagan. Uning tushida Boqirg'oni (vaf. 1186) ruhi ishorat qilgani va u Xalil Ota tarbiyasini olganini, shundan keyin Xojai Jahon ruhiyati tarbiyasida bo'lganini yozgan.

Naqshband buyuk mutasavvif Mansur Halloj (858) ruhidan ham ta'lim olgan. Naql qilinishicha, u aytgan: «Talab ayyomlarida Mansur Halloj sifati ikki marta menda tug'yon urdi. Bir dor bor edi. Ikki marta o'zimni dor ostiga etkazdim

⁵ Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki etti pir. Buxoro, 2006 yil. – B. 14.

va dedi: «Joying mana shu dordir!». Tangri inoyati bilan bu maqomdan o'tib keta oldim». Naqshband buyuk so'fiylar Boyazid Bastomiy (vaf. 875), Junayd Bag'dodiy (vaf. 910), Shibliy (861) ruhiy olamidan ham bahra olgan, lekin ular maqomida qolmagan.

Manbalarda keyingi ruhiy tarbiya bergan valiy Xoja Hakim at-Termiziy ekanligi ko'rsatilgan. Hijriy 789 yidda Bahouddin shunday degan: «Yigirma ikki yildirki, biz Hakim at Termiziy tariqatiga ergashamiz va ular besifat edilar. Agar biror kishi bilsa men ham bu zamonda besifatdurman». Yana Naqshband Xavazan Qushayriy (986) va Fariduddin Attor (vaf. 1220) ruhiyatidan tarbiya olgan. Maqomotda yozilishicha, u aytar edi: «Bizning sulukimiz tariqatda Imom Qushayriy va Shayx Attor aytgan so'zlariga juda muvofiq keladi»⁶.

Manbalar malum bo'ladiki, Naqshbandga Abu Ali al-Horis Muhosibiy (781), Abu Sayid Abulxayr (967), Abdulloh Ansoriy (1006) va Abdulqodir Giloniy (1077-1166)lar ruhiy ta'sir etgan.

Bahouddinning «Avrod» asari bor. Avrod «vird» so'zining ko'pligidir. Virdni Trimingem uch mazmunda: «a) tariqat; b) maxsus duo; v) tariqatning zaruriy duosi» deb talqin etgan. Virdning tariqat manosida kelishi uning bu yo'lning asosini tashkil etuvchi duolar tizimi ekanligini anglatadi. «Vird tariqat so'zining sinonimi bo'lib, xizmat qilish zarur bo'lgan yo'lni anglatadi. SHuning uchun muayyan shayxning virdiga ergashish shu tariqat yo'lga ergashish demakdir».

Vird tariqatga kirishda ahd marosimida bu yo'lga kirayotgan kishiga tasbeh bilan birga topshirilgan va kamolot darajalariga muvofiq o'qishga ijozat berilgan. Trimingem islomdagi tariqatlarni tahlil etib, «Barcha tariqatlar o'zining shaxsiy, o'z rahbari ijod etgan avrodiga ega bo'lgan. Unda tariqatning xususiyati o'z aksini topgan», - degan xulosaga kelgan. Tadqiqotchi Naqshbandning «Avrod»i Naqshbandiya tariqatining xususiyatlarini aks etgiruvchi muhim manba degan xulosaga keladi.

«Avrod»da butun borliq yagona ilohiy asosga ega bo'lgan ikki olamdan

⁶ Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug' Xojaning ibrat va xikmatlari. Pedagogik maxorat, 2005, 1-son. –B. 23.

iborat, deb qaraladi. Bu olamlarning biri «amr», ikkinchisi «xalq» deb nomlanadi. «Amr» - Tangrining amri bilan yaratilgan birlamchi, abadiy va asosiy olam, «xalq» esa shu amr olamining tadrijiy rivojlanishi natijasida vujudga kelgan mavjudotlar olamidir. Ikkinchi olamning asli amr olami bo'lib, u o'zgaruvchan va foniidir. SHu bilan birga, Bahouddin jami borliqni «g'ayb» va «shahodat» olamlariga ajratadi. «G'ayb» bizga ko'rinmaydigan farishtalar, jinlar va boshqa ilohiy quvvatlar olami. «Shahodat»-biz guvoh bo'lib turgan zohiriy olam. Bahouddinning fikricha, «shahodat» olamiki inson o'z hissiyotlari va aqli orqali o'rganishi mumkin. Ammo Tangri o'zi istagan kishigagina g'ayb olami sir-asroridan boxabar bo'lish imkoniyatini laduniy-o'z bilimlaridan berishi mumkin.

Naqshband ma'rifatni keng ma'noda tushunadi. U ruhiy kamolotning asosiy maqsadi ma'rifatli bo'lishdir, deb biladi. Ma'rifatni ijmoliy (qisqa) va tafsiliy (to'liq) deb ikkiga ajratadi. Bahouddindan so'raydilar: «Sayru sulukdan maqsad nima?». U javob beradi: -«To ijmoliy ma'rifat tafsiliyga aylansin», ya'ni solik xabarchidan qisqagina qabul qilingan narsani, tafsil yo'li bilan to'la tanib olsin.

Bahouddin ijmoliy ma'rifat bosqichida dalilu hujjat vositasi bilan, ya'ni aqlu tafakkur ila amal qilish mumkinligini ta'kidlagan. Tafsiliy ma'rifat martabasi esa kashf va ayonlik ila, ya'ni Tangri inoyati orqali hosil bo'ladi, deydi. Bahouddin «Tavhidga etish oson, lekin ma'rifatli bo'lish murakkab jarayon, shuning uchun unga piru murshid rahbarligi orqali etishish mumkin», -deydi.

Naqshband «Haqqa etish talabida bo'lgan soliklarning asl maqsadi tafsiliy ma'rifatdir», ya'ni Haqning talabida bo'lgan inson-butun kullga to'la singib ketishi, binobarin, sayru sulukning oxirgi maqsadidir, deb belgilagan.

Naqshband Haqqa etishish yo'li o'zini tanishdan boshlanishi, bu yo'lda asosiy to'siq kishining o'zi ekanligini ta'kidlagan. Inson ma'rifatli bo'lishi, o'zini anglashi, o'rganishi uchun avvalo o'z-o'zini boshqara olishi, barcha quvvatlarini ilohiy yo'lga sarflashi, butun vujudini idora etib, uni ruhiy kamolot uchun safarbar etishi kerak. Shuning uchun Bahouddin poklanish kerakligani alohida

ta'kidlagan. U aytgan: «Haq yo'lining avvali botindan yomon sifatlarni yo'qotishni talab etadi. Bilginki, erdan yaxshi hosil olish uchun uni barcha xashaku xaslardan tozalab, keyin urug' sepiladi. Xuddi shunday botinni poklab, so'ng unga zikr urug'ini sepish kerak». Bahouddin Naqshband ma'rifatli bo'lishni fano holati bilan bog'lagan. Bu holatga etgandan so'ng kishiga ma'rifatning sirlari ochiladi, deydi. Buning uchun barcha hijob - to'siqlar bartaraf bo'lishi kerak. U yana ta'kidlaganki, ilm va aqlning yo'li to fano sohiligachadir, ya'ni bu moddiy olam bilan bog'langan narsalarni o'rganishda ilm va aql ko'maklashadi. Fano holatiga etib, yo'qlik olamiga kirgandan keyin hayrat va benishonlik boshlanadi, ya'ni tafsiliy bilish jarayonida dalil va isbot emas, noratsional bilish usullari zarurligini aytmoqchi bo'ladi. Bu jarayonni Naqshband bunday ta'riflagan: «Tanish shuxuddan vujudga keladi. SHuhud vujudan emas, unga ziddir». Demak, bu irfoniy jarayonda aql emas, ruhiy bilish, qalb ko'zi asosiy o'rinni egallaydi. Bu «ko'z» bilan g'ayb olami sirlarini ko'rib bo'ladi. Dalilu burhondan so'ng kashfu ayon martabasiga o'tilishini ta'kidlagan u. Naqshbandning irfoniy ta'limotida vujud bilan shuhud tushunchalari bir-biriga qarshi turadi. Aql va ilm vujud bilan bog'langan va dalil hujjat bosqichi, deyilsa, shuhud kashfu ayonlik darajasi bo'lib, ruhiyat bilan bog'langandir. Shuhud darajasiga etgan solik surat, kasrat martabalaridan o'tib, ayoniy tavhid maqomiga etadi. Ko'plikning suratiga qarab turib, shuning jamuljamida Haqni mushohada etadi. Unda Oллоhdan o'zga narsa va hodisalar mushohadasining o'zi to'la yo'q bo'ladi va har narsagaki ko'zi tushsa, unda faqatgina haqni ko'radi⁷.

Bahouddinning ma'rifatga oid 20 ta maslahati bor. Nodir maslahatlar hozirgi kunda ham ma'rifat talabidagi kishilar uchun bag'oyat qimmatlidir. Bahouddin maslahatlarini berishdan oddiy insonni, ulardan foydalanishga tayyorlash maqsadida uqgarib o'tgan: «Siz o'zingizni bilim bilan to'ldirmoqchisiz. Lekin bir narsani to'ldirish uchun uni avval bo'shatish lozim. Siz o'zingizni to'g'ri bilimlar bilan to'ldirish va bo'shatish uchun quyidagi maslahatlarga amal

⁷ Zaripov K. Ta'lim-tarbiyada Qur'oni Karim va hadislardan foydalanish. -Buxoro, 1999 yil. -B. 78.

qilishingiz va o'zingiz uchun ularni qoida qilib olishingiz mumkin».

Bu bilan Bahouddin yangi, to'g'ri bilim bilan o'zini to'ldirmoq istagidagi kishiga, avvalo, o'zidagi bor narsalarni olib tashlab, poklanishga maslahat beradi. Bahouddin irfoniy ta'limotida bu maslahatlar hozir ham muhim ahamiyatga ega. «Hech qachon, qanchalik istagingiz kuchli bo'lmasin, o'qish muddatiga berilmang, o'qish-o'rganish shiddat holatida sezilmaydigan yo'l-yo'riqdir», - degan Bahouddin birinchi maslahatida. Bu bilan o'qish-o'rganish shiddat bilan, tezlik bilan, qisqa muddatda amalga oshadigan jarayon emasligini ta'kidlagan. Qisqa muddatda ilmdagi harfu-qoidani, uning tashqi tomonlarini yodlash mumkin, lekin asl mohiyat -uning botin tarafini anglash, tushunish, ko'rish uzoq jarayon. «Hech qachon ichki kechinmalarigizga berilmang. Qachonki, siz ularning chegarasidan chiqsangiz bilimga etasiz. Ular sizni adashtirish uchundir», - degan bu ulamo ikkinchi maslahatida. Ma'lumki, har bir kishi atrofdagi voqea-hodisalarni o'ziga xos tarzda ko'radi, eshitadi, ta'sirlanadi, o'zicha xulosalar yasaydi va bu ichki kechinmalar ob'ektiv ilm, haqiqatga etish uchun to'siqdir demoqchi u. Qachonki ularni engib, olamga xolisona nazar tashlanadigan bo'lsa, haqiqiy bilishga etishish mumkin Ichki kechinmalar olamni tor tushunishga, sub'ektiv qarashlarga olib keladi va ilohiy haqiqatni bilishga to'siq bo'ladi. «Agar sizni bilim izlash uchun yubormasalar, hech qachon sayohat qilmang. Sayohat bilim uchun sinovdir, yo'l-yo'riq emas», - deydi Naqshband uchinchi maslahatida. Naqshband asoslagan ta'limot va naqshbandiyatariqatida «safar dar vatan» qoidasi bor. Unda inson shaxsiy kamoloti uchun o'z-o'zini anglash, o'z vujudi bo'ylab safar etishi, o'zidagi yomon jihatlarini tashlab, yaxshi axloqni egallashi kerak, deyilgan⁸

Tasavvufga doir barcha lug'at, maqolalarda bilish haqida ran ketganda laduniy bilim-yaqin, to'g'ri bilim, haqiqat darajasidagi bilim Olloh inoyati bilan beriladi, deb ta'kidlangan. Yirik olim Frans Rouzentel ham «Bilim-nur, so'fizm» haqida gapirganda «ilm» va «yaqin» tushunchalarini taqqoslagan va «yaqin» ilohiy tomonidan beriladi degan tushunchani ilgari suradi. Bahouddin

⁸ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. -Toshkent, 1996 yil. -B. 45.

ta'limotida bu fikr boshqacha izohlangan. Uning fikricha, laduniy ilm bilan yaqin ilmi o'rtasida farq mavjuddir. U bunday deb yozgan: «Laduniy va yaqin ilmlarning orasida farq shudirki, yaqin ilmi - asl zotning nuri va ilohiy sifatlarini idrok etishdan iboratdur. Laduniy ilm esa, ilhom orqali uning ma'nosini va Haqning kalomlarini fahmlay olishdir».

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, Naqshbandning fikricha, y a q i n ilmi orqali so'fiy Tangrining zoti va sifatlarini, nurlarini idrok qiladi. Laduniy ilmda esa ilhom orqali haq mohiyati va kalomlarini fahmlay oladi. Bahouddin Naqshband laduniy ilmni yaqin ilmdan ko'ra yuqori darajada va butun olamdagi ilmlarning eng yuksagi deb qaragan. Chunki asl maqsad-bu nurlarni ko'rish emas, balki haq mohiyati va kalomlari ma'nosini anglashdir.

1.2. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf ta'limotida o'ziga xos o'rni.

Hozirgi kunda dunyoda keng tarkalib borayotgan diniy mutaassiblik siyosiy muammolarni xal etishning asosiy vositasi sifatida kuch ishlatish va zo'ravorlik qilish o'zining ijtimoiy va diniy qadriyatlarini ustun quyish g'oyalari va konsepsiyalari terrorizm hamda diniy determinizmning g'oyaviy-ma'naviy asoslarini tashqil etadi. Ularga qarshi kurashda xalqimiz ilg'or farzandlari tafakkurining mevasi bo'lishi va boy ijtimoiy falsafiy va ma'naviy merosimizning ajralmas qismi hisoblangan tasavvur tariqatlarining xaqchil g'oyalari o'tkir qurol sifatida xizmat qila oladi⁹.

Tasuvvuf o'z vaqtida islom dinining vujudga kelishi va keng tarqalishi mustaxkamlanishi va rivojlanish jarayoni bilan o'zviy bog'langan holda paydo bo'ldi va o'zoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Uning ilk ta'limotlari IX-X asrlarga mansub bo'lib islom dunyosida o'sha davrdagi ijtimoiy va ma'naviy extiyojlariga javob tariqasida paydo bo'lgan edi. Arablar Markaziy Osiyoni bosib olish davrida uning xalqlarini og'ir axvolga solgan edilar. «Tasavvur falsafasi sen shu ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati sifatida shakllandi. Bu oqim vakillarining diniy-falsafiy qarashlarida odamlar o'rtasida tobora chuqurlashib berayotgan

⁹ Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. -Toshkent: Fan, 2005 yil. -B. 12.

tengsizlik va adolatsizlikni qoralash hammani o‘zining kuchi bilan kun ko‘rishga chiqarish g‘oyalarni ilgari surildi. Tasavvur falsafasida ijtimoiy gumanistik fikrlar ustunlik qilar edi.

Ammo dastlab uni siyosiy va diniy arboblardan tomonidan qabul qilinishi bir xil sillik kechmadi. Ayniqsa muatassib din arboblari va ulamolari tomonidan xudosizlikda ayblangan yirik mutasavvuf olimlardan biri bo‘lgan Mansur Xalol (858-932) qatl qilindi. Bu esa diniy ma‘naviy muammolarini kuch ishlatish zo‘ravonlik vositasida xal qilishning yorqin misoli edi. Extimolni shu voqea sabab tasavvuf ta‘limoti diniy zo‘ravonlikni oldini olish unga ta‘mir ko‘rsatish tarzida diniy manfaatini yoqlashga yo‘g‘rildi. Va jamiyat shaxs ma‘naviyatini axloqni mustaxkamlash uni mohiyatini senga insonparvarlashtirish inson xayotida tobora yaqinlashtirishga yo‘naltirildi. Bu esa ishtiyoqlama foydali bo‘ldi: dinni inson xayotiga ehtiyojiga yaqinlashtirdi va bu vazifani xal qililuvchi turli tariqatlar ko‘paya bordi, ya‘ni ularni xalq o‘rtasiga keng tarqalishiga din peshvolari insonlik qila olmadilar.

Chunki tasavvufning deyarli hamma oqimlarini birlashtiradigan tamoyillar zukud va xudo visoliga etishish haqidagi ta‘limotlardan tashqari ularning zulm va zo‘ravonlikka qarshi g‘oyalari hech kimga yomonlikni ravo ko‘rmaslik o‘zgaralarga yordam berish soxiy va sabr toqatli bo‘lishi halol mehnat qilish komil inson darajasiga erishish yo‘llarini ko‘rsatish bilan bog‘liq sa‘yi-harakatlari ham tashqil etadi.

Bundan tashqari Islomning tasavvufga munosabatining o‘zgarishiga nafaqat istilochilik va harbiy yurishlar bilan tarqatish mumkinligi balki xalqqa tushunarli va yoqimli bo‘lgan ma‘naviy axloqiy vositalar bilan keng tarqatish insoniyatining paydo bo‘lganligidir. Chunki tasavvuf g‘oya va ta‘limotlari islomni inson kamolotiga olib boruvchi yo‘l va vositalar bilan boyitdi.

Din va dindorlar uchun yana bir muhim topgani diniy g‘oyalarni ortiqcha sarf harajat ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy harbiy tadbirlarsiz tarqatish imkoniyati tug‘ilganidir. Tasavvuf ilm islom ma‘naviyatining qolaversa jahon taffakur olamining bu ta‘limotidir. Tasavvuf maqomlari insonni donolikka

donishmandlikka chorlaydi. Inson va insoniyatning donishmandligiga xizmat qiladi. Insoniyat tajribasi ko'rsatadiki, donolik mujassam bo'lganligiga ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin.

«Tasavvuf ilmi insoniyatni idroki donishmandlik maqomi orqali insonlikka yo'naltiradi. Barcha ishlarda ilmiylik kashf etiladi. Aql-idrok orqali kishilik xuquqiga erishish o'z-o'zini erkin boshqarishga yo'llaydi» Tasavvuf yaxlit diniy axloqiy falsafiy ilmiy ta'limot hisoblandi. «Tasavvuf» ta'minotida dastlab quyidagi qoidalarga amal qiladi: «ilmiy yaqin» ya'ni mohiyatini ilm bilan bilish; «aynul yaqin» ya'ni mohiyatini aniqlash va «xaqqul yaqin» ya'ni Alloxni bilish va uning qudratini tan olish. Bu qoidalar tasavvuf ilmiga kirishning dastlabki qadamlaridir»¹⁰.

Tasavvuf ta'limotini yaxlit bir fan sifatida o'rganmoq lozim. Bunda gnolologik yoki metodik jihatdan bosqichma-bosqich erishiladi. Bu bosqichlar asosiy 4 ta. 1. ilm shariat. 2. ilm tariqat. 3. ilm ma'rifat. 4. ilm haqiqat.

Ma'rifatda o'n yil haqiqatda o'n o'rin bilan jami va maqomni Tashqil etadi. Bulardan shariat amal qilish shart bo'lgan qonundir. Tariqat esa mujasamlashgan qat'iy odobu axloqdir. Iml ma'rifat ilm haqiqat esa avliyolarning o'zlariga xos yo'lidir. Bunda ma'rifat muridining o'zini anglab etish sari yo'l tutishi ochig'i nafsini tiyishidir. Haqiqat esa o'z ruhining tangri ruhi bilan bog'lanishiga yo'l tutishidir.

SHarqning buyuk tasavvuf mutafakkirlari Julayd Bag'dodiy, Mansur Xalqoq, Muhammad G'ozzoli YUSuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad YAssaviy, Xoja Bahouddin Naqshbandlar o'zlariga yo'l tutib tasavvufni rang-barang shaklan har xil (poetik) yoki nasriy tarzda boyitganlar.

Tasavvufda asosiy shaxs sufiy hisoblanadi. Sufiy uchun na dunyodan va na oxiratda ta'ma bo'lmasligi kerak. YAgona istak bu xudoning diydoridir xolos.

Mashhur so'fi ayol Robia Adviya (714-801) tangriga murojatlarida nola qilib aytar ekan; «Ey parvardigorim, ey yori aziz, agar jannatingdan benasib et agar do'zaxingdan qo'rkib ibodat qiladigan bo'lsam meni do'zax o'tida kuydir ming-ming roziman. Ammo agar sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman

¹⁰ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. -Toshkent, 1996 yil. -B. 47.

yolvoraman men jamolingdan maxrum etma!» Tangri taologa quruq ko‘r-ko‘rona muteminning xojati yuq. Xudo g‘azabidan qo‘rqibgina amri ma‘rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki ziyodir. SHuning uchun sufilar: Alloxni chin dildan sevish, uning zoti va sifatlarini tanish va bilish ko‘ngilni nafsu xirs g‘uboridan poklab botinish musaffo bir xolatda ilon vasligi etishish va bundan lazzatlanish g‘oyasini keng tartib qildilar. Inson Ruhi ilohiydir va demak asosiy maqsad-olishga borib qutilmoqdir dedilar. SHu tariqa dunyodan ko‘ngil uzgan ammo zoxidlarga o‘xshamaydigan zexnu zakoviy aqlu darajasida tengsiz ammo o‘zga mutaffakirlar foydalanishlardan ajralib turadigan shariat ilmini suv qilib ichgan toatu ibodatda mustahkam lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatlar odamlar toifasi paydo bo‘lgan ediki, ularni Ruh kishilari deb atardilar.

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abduraxmon Jomiy murshidi «ofok noshifi isrori iloh» barcha ishlardan xabardor karomatli va insoniyatli va pok niyatli zotlar sifatida ta‘rif tavsif etadi. Masalan Bahouddin Naqshband.

Mulki jaxon mazmun mohiyati ul,
 Balki jaxon mulki nigoxbani ul,
 Yo‘q manolikka nogixband bo‘lib,
 Barcha sanotan o‘za sulton bo‘lib
 Xaq so‘zini elga qilurda ado

Teng kurishib oldinda shoxu gado Tasavvuf ta‘limoti («Xayratul Abror»dan) birdaniga emas qadamba qadam rivojlanib nuqul diniy axloqiy talqindan ilmiy-falsafiy Ruhiiy psixologik badiiy she‘riy shijoatdan boyidi.

Agar IX-XI asrlarda tavxid asoslarini chuqurlashtirishga katta e‘tibor berilib tasavvufning fan va baxo kabi tushunchalari xaqi visol bo‘lish mayli shiddat bilan targ‘ib qilingan bo‘lsa XIII asr o‘rtalarida boshlab tafakkuriy aqliy yo‘nalsh etakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavvuf tarixida «vakdjagud vujud» nomi bilan shuxrat topdi. Sufilar endi tuzilishi odamlarning xususiyatlari olam va odam munosabatlari nomi inson anglamalari bilan bosh qotiradigan bo‘ldilar. Natijada ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o‘z ifodasini topdi, ular ilohiy nashr karomat Ruhiiy psixologik xolatlar latifalar

bilan birga real insoniy hayot haqida ham shunda ko'p ijobiy fikrlarni bayon etdilar. SHunday qilib, tasavvuf SHarq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'z ichiga qamrab olib, uni rivojlantirdi din va falsafa tinmay va vaxdiy kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf sharq kishisining tafakkur to'zi va axloq normasini belgilaydigan xodisasiga aylanib qoldi.

IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, sufilarning amaliy Ruhiiy psixologik mashqlari o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir usullari shakllandi¹¹.

Tariqat, ma'rifiy haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi».

«Tariqat» so'zining ma'nosi yo'l demak. YA'ni ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining Ruhiiy-axloqiy kamolot yo'li. Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb ta'riflaydilar. Dar haqiqat ham shunday chunki pir murshidlik qoidalari odobiga rioya etish soli ya'ni tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar iroda va ayrim usullari shu tariqat ichiga kiradi.

Jumladan, Jaloliddin Rumiiy asos solgan mavlaviya tariqati suniiy yo'nalishida bo'lib, lekin diniy va mazxabiiy ayirmachilik unda belgilovchi emas. Rumiiy dinlari insonni poklovchi deb qarab ularni bir-biridan ustun qo'ymay ularni Alloxga olib boradigan turli yo'llar deb qaragan.

Har vali-yu har kabirol maslakest,

Lek to Haq meravand gula YAnast -deydi.

Mazmuni: Har bir payg'ambar va valining o'z maslaxatchisi mazkaba bor, lekin xaq oldiga borganda ularning hammasi bir.

Jaloliddin Rumiiy o'zining «Fikiy mo fikiy» («Ichingdagi ichingda») quyidagi rivoyatni keltiradi «Bir kun» Mavlono bir jamoat o'rtasida so'z aytardi, jamoat ichida g'ayri dinlar ham bor edi. Ular ham ta'sirlanib zavq bilan xolatga tushib yig'laydilar. Barcha suratini ular nimani anglaydilar va nimaga yig'laydilar?

¹¹ Buxoriy Xoji Abdulg'afur Razoq. Tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya ta'limoti asosidir). - Toshkent: Movarounnahr, 2003 yil. -B. 25.

Mavlono dedi: bu soʻzlarning maʼnosini hamma bilishi lozim emas. Agar hamma xudoning yagonaligiga iqrordir va xudoning xoliku roziq jonini tan oladilar... Shuning uchun bu soʻzlarni eshitgach va ushbu soʻzlar xaqning va siri va zikridir, bas ular hammaning qalbini titratdi, va zavq nasil qildi. Chunki bu soʻzlardan Maʼshukning xidi va ularning matlabi namoyon edi. Yoʻllar xilma-xil boʻlsa ham, lekin maqsad birdir. Karachin Kaʼbaga olib boradigan yoʻllar koʻp. Birovlar rumdan, birovlar SHomu ajaldan yoʻlga chiqadilar» yoʻllar turlicha maqsad bir Kaʼbaga borib poklanish hammani birlashtiradi.

Tasavvufda ibratli xislat - oʻz-oʻziga murosasiz boʻlmoq. Shumlik va gunoxlarni bekitmok xiyonat hisoblanadi. Inson poklanish uchun oʻz nafsi bilan ayovsiz va botiniy kurash olib boradi. Oʻz gunohlariga mardona nazar tashlaydi. Gunohni anglash gunoh qilmaslikning chorasidir. Gunohlik tuygʻusiga tobelik-poklanish istagiga erk berish ichki nido unga tinchlik bermaydi. Bu ovoz yolgʻizligi bilan diqqatni chuqur jalb qiladi va qalbdagi oʻz - oʻzining bilan qolish oʻzligini tekshirish istiroblarni qoʻzgʻaydi. U inson umrining harakat tarzini juda nozik ilgʻaydi. Tasavvufda IX asrda malomatiya mazhabi yuzaga kelgan boʻlib, uning markazi Nishopur boʻlgan malotiya mashabiga mansub kishilar uchun oʻz-oʻzini komillashtirish yurakni poklash bosh vazifa hisoblanganligini yozadi. Ammo bu ish mutlaqo shaxsiy harakat tarzida atrofdagilardan yashirin koʻz - koʻz qilinmasdan oshirilishi shart boʻlgan. «Sodda qilib aytganda malotiya - bu insonning oʻz-oʻzini taxlildan oʻtkazish, taxlil etgan sayin qusuri nuqsonlar uchun oʻzini ayamaslik va ularni malomat tilida fosh qilmoq yoʻlidir»¹²

Bu yoʻlga kirgan inson barcha yomon xislatlarini sira yashirmasdan oshkor qilib yaxshi fazilatlarni esa qatʼiyat bilan ponxon saqlagan shu zaylda oʻzini axloqiy jihatdan takomillashtirgan. Mumtoz merosimizda Ahmad YAssaviy malomatiya mazxabining yorqin namoyondasi va badiiy ifodachisi edi. U oʻzining xikmatlarida malomatiya qonun qoidalari asosida fikr yuritib odamni oʻz oʻziga tanqidiy nazar bilan qarashga daʼvat qiladi. Har qanday din kabi islom dini ham

¹² Abul Muxsin Muhammad Bokir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon. - Toshkent: Yozuvchi, 1993 yil. -B. 46.

insonning bosar tusarini bilmay yashab, gunox qilishin qoralaydi. Ammo gunohlariga iqrorklikni to‘la yo‘qlaydi. Chunki tovba tazarru-tozalanish poklanish demakdir. SHuni alohida ta’kidlash lozimki gunohkorlik faqat aybdorligiga iqrorklik emas eng muhimi uning mohiyatini sababini tushunish va undan qaytish. «Haqiqatning muqaddas eshigiga kalit solish hamdir». Xoja Ahmad YAssaviy asoslagan Yassaviya tariqati markazida pokiza ilohiy ishq yotadi. Bu ishq insonni dunyoviy illatlardan xalos qilib, kalbi nur bo‘lik kirib, insonni olloh vasligi xidoyat etadigan qudrat, ma’rifat va haqiqatga eltuvchi, kishini o‘zligini anglash, insoniylik mohiyatini kashf qiluvchi vosita hisoblanadi.

Yassaviya tariqatida «ishq ham dard va ham darmon, ham azob va ham roxat. Tariqatning barcha masalalari - xoll va fano, botin va zoxin, xayrat va tavxit, bexudlik va devonalik va xokazolar ishq tushunchasi orqali anglashiladi va tushuniriladi. Yassaviya talqinida ilohiy ishq mohiyatini anglamagan odam tasavurni tushunmaydi. Uning talablari, u yo‘lga kirgan kishi uning aqida va g‘oyalarini to‘la idrok eta olmaydi. Yassaviy ijodidagi uzlat, sadoqat va mexr shavkat g‘oyalari yayniy shu ishqg‘oyasi bilan uyg‘un bo‘lib, ularni bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Ko‘nglida pok ishqbor odam doimo poklik va uning timsoli bo‘lgan ollohga intiladi. Yassaviy ta’sirida ishq faqat ilohni sevish, unga sig‘inib ox nola qilish emas balki uni tanish, o‘zini bilish va kamolot yo‘lidir. Axmad Yassaviy Markaziy Osiyo tasavvuf shayxlari ichida turkiy tilda she’riy tarzda o‘z sufiyona ta’limotini bayon qilgan mutafakkir hisoblanadi. O‘z she’riyatida islomiy haqiqatlarni va tasavvuf ta’limotini yuksak maxorat bilan omuxta etib shariatu tariqatni bir butun deb bilib iymon va sadoqat g‘oyalarini qizg‘in extiros ila kuylagan»:

Tasavvuf ta’limotining rivojlanishida Markaziy Osiyo alohida o‘rin egallaydi mazkur mintaqada shakllangan tasavvufi ta’limotlar o‘zining qirraligi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyati jihatidan qo‘shni Eron, Arabiston va boshqa mamlakatlarda mavjud bo‘lgan diniy-falsafiy ta’limotlardan ustun turar edi. SHu bois Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvufning turli oqimlari yo‘llari tez vaqtda ko‘plab mamlakatlarga keng tarqaldi. Markaziy Osiyo tasavvuf ta’limotning

rivojlanishida Xorazmlik buyuk alloma sarkarda, dinshunos olim, zabardas faylasuf, shoir Axmad ibn Umar Abdulmajid Najmiddin Kubro al Xivakiy Al Xorazmning xizmati kata. Buyuk vatandoshimiz asoslagan «Kubraviya» tariqati ta'siri ostida firdavsiya tariqati, Nuriya tariqati, Rukniya tariqati, Hamadoniya, Nurbaxshiya tariqati singari yo'nalishlar yuzaga keldi.

Kubraviya ta'limotida diniylik va dunyoviylik o'zaro chambarchas bog'liq. Unda kishilarning diniy e'tiqodi, xudoga bo'lgan, ishonchi, xalollik, odamiylik, molu dunyoga xirs qo'yimaslik o'z nojuya ishlaridan tavba qilish shaxvoniy xirsu xavolardan saqlanish lozimligi kabi axloqiy talablar bilan vobasta talqin qilinadi. SHu bilan birga Najmiddin Kubro asoslagan Kubraviya tariqatida imlomning shia va sunna mazxabidagilarga mos, ular birga ta'lim oladilar. Buyuk shayx Najmiddin Kubro o'z tariqatining mohiyatini «Al-usul Al-ashara», «Risola At-guruh», «Vafoxiul jamol» nomli asarlarida bayon qiladi. Kubraviya tariqati 10 ta odob qoidalari asosida sufiylar tarbiyalashning ta'lim usularini ishlab chiqadi. Bular: tavba, zuxid, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjux, sabr murokaba, rizo. Bularning mohiyati quyidagicha¹³.

1. Tavba - barcha amallarning boshi. Murid o'z gunoxlarini anglab Allohtaolloh oldida tavba qilib, bundan keyingi umri davomida faqat ezgulik va xayrli ishlar qilishga axd qiladi. Tavba qilgan murid avvalgi xayot tarzini o'zgartirib, xulk atvori, axloqni tubdan o'zgartiradi. SHu asosida o'zini anglash sari izox va qiyin yo'lni tanlaydi.
2. Zuxd-taqvo, parxez demak. Tavba qilgan kishi haromdan xazar qilib, nafsni tiyib, xalollikka yuz tutib, allohdan qo'rkib, u man etgan ishlarni etmaydi.
3. Tavakkul - o'zining butun amallari, fikri va ishlarida faqat alloxga suyanadi va undan panox so'raydi. Inson rizkini olloh beradi uning takdirini olloh belgilaydi Uning amallari va irodasi ham ollohga yo'nalgan bo'lishi kerak. Olloh bizni toat ibodatga chorlaydi. Bizning butun faoliyat va ijodimiz kuch-kudrati ilohiy jihatdan belgilangan. Inson o'z xatti-harakati bilan poklik sari intilib, olloh sari uning jamoliga etishga harkat qilishi lozim.

¹³ Bahouddin Naqshband. Avrod (avrodi boxoiya) G.Navro'zova tarjimasi, -Buxoro, 2000 yil. -B. 78.

Qubroviya tariqatining yana muhim bir tomoni «latoif», «ranglar» to'g'risidagi ta'limotidir. Naqshbandiya Kubro muridning tariqat ma'rifati yilidagi ruhiy kechinmalari va nozin xislatlarini ro'zcha ko'rinmas ruh-latif» markazlardan iborat shu markazlar yallig'lantirib o'tkirlashib berishini u sezishi lozim, deb hisoblaydi. Uningcha ana shu «latoyif» insonning olohiy xislatidir. Murid ma'rifat yo'lida riyozatlar chekib, mashqlar davomida bu latoifni turli xolatlarining o'zgarishi ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qiladi. SHayh Najmiddin Kubro nazarida nuqta, dog' va doira murid ruhiy xolatlari o'zgarishida muhim hisoblanadi. Doira-bu falak, dog'-dunyo timsoli va nuqta - vaqtdir. Doira doimiy aylanishda u dog'ni ham o'z ichiga oladi. Ammo bular markazga tomon, ya'ni nuqta sari intiladi. Nuqta mohiyatini anglash orqali alloh olami idrok etiladi. Murod ruhi shuningdek hayajonlar hayratlar ichra turli ranglarga ham duchor bo'ladi. Xaligi doira dog' va nuqta aylanishi va almashinishi ranglar almashinishini ham qamrab oladi: ruhning xislar bosqichidagi taraqqiyoti qora rangda, keyin qizg'ish rangda kechadi. So'ngra yashil rang ko'rinib ilohiy olamning yaqinligidan dalolat beradi. Murod ruhi shuningdek hayajonlar hayratlar ichra turli ranglarga ham duchor bo'ladi. Haligi doira dog' va nuqta aylanishi va almashinishi ranglar almashinishini ham qamrab oladi: Ruhning hislar bosqichidagi taraqqiyoti qora rangda, keyin qizg'ish rangda kechadi. So'ngra yashil rang ko'rinib ilohiy olamning yaqinligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, ranglar so'fiy ruhiy holatlari, Alloh tomon safaridagi daraja bosqichlarini bildirib turadi. Ranglarning xilma-xilligi va almashinib turishi solihning ahvolini shuuriy kechinmalarning davom etayotganini ifodalab u hali talavvuk ya'ni botiniy tafakkuriy kechinma uylarning alg'ov-dalg'ovida turli tumanligini anglaydi. Ruhning rangdan ranga ko'chishi rivojlanishidan nishonadir. Ushbu jarayon ohir-oqibatda rangsizlikni holatiga kirgan so'fiy «talavvun»dan (rang baranglikdan) qutilib vahdan olamiga qo'shilgan bo'ladi. Chunonchi zangori rang solihning tavba qilib, tariqatga qadam qo'yganida ko'rinadi. Bu holat u shariat doirasida bo'ladi. Mantiqiy - daliliy bilishdan hali qunt o'lmagan hali ko'nglida dunyoviy havaslar mayli hukmronidir. Bundan keyin tariqat boshlanadi.

Solih qabulida muhabbat koʻzgʻaladi, u Alloh yodi bilan yashaydi va bu sariq ranga toʻgʻri keladi. Qizil rangda solihning ruhi vujudan ajrala boshlagani maʼrifatga yaqinlashgani maʼnaviy mohiyatlar olamini anglagani maʼlum qilinadi. Ammo bu bosqich hali hirs qutqusidan xalos boʻlmagan bir holatdir. Soʻngra oq rang koʻrinadiki, bu yurakning poklanishiga ishoradir va haqiqatni anglash boshlanadi. Haqiqat olamidan xabardor boʻlib, tavhid holatini boshidan kechiradi. SHundan keyin yashil rang keladi. YAshil rang vahiylikdan nishona. U sirlarning siriga gʻoybga oshnolikni bildiradi va solihning asl mohiyatlarga yashnayotganini ham anglashishi mumkin, mazkur ranglar solihning Alloh tomon va Alloh bilan ruhiy safarlarini anglatgan boʻlsa, oltinchi rang - qora rang Allohdan xalq sari safarini bildirib, kanzul asror-sirlar xazinasini egallashni va hayratga gʻarq boʻlishini ifodalaydi. Hayratdagi ruh shariatning magʻzi hikmatini boshqatdan idrok etib, qorangu bir dogʻ rangiga oʻraladi, va nihoyat solih ruhi yana Alloh xuzurida paydo boʻladi. U qora rangdan qutulib rangsizlik holatiga kiradi. Zotiquill darajasini egallagan solih yak ranglik holatida maqsadida erishadi.

Yuqorida qayd qilinganidek Naqshbandiya tariqati boshqa tariqatlardan keskin farq qiladi. Chunki Naqshbandiya tariqatining butun mohiyati insonni har ishxatdan poklovchi saʼy-harakatlarga undash oʻz hatti harakatini oʻzi yakkaligida ham umum jamoa jamiyatda axloqiy poklik jihatdan birov emas oʻzi tartibga solishi va faqatgina Xudo oldida oʻz amallari uchun javobgarlik hissini sezmogʻi lozim. SHu bilan birga insonning halol pok intilishi amallari shunchaki birovga koʻz-koʻz qilish uchun emas, balki ixlos-eʼtiqod bilan sidkidildan doimo hamma vaqt har qanday shariatda bajarilishi zarur va farz¹⁴.

Inson yaxshi amallarini tark etmay uzluksiz bajarib turishi zarur vazifalarni bajarishi unga maʼnaviy qoniqish berib, yaratganning undan roziligini ifodalaydi. Hazrat Bahouddin Naqshband fikricha, inson bu olamda oʻz oʻrni asl mohiyati tangrining erdagi xalifasi ekanligi va uning barcha sifatlarini oʻzlashtirib u tomondan yaratilganligini bilishi va shunga mos amal qilishi kerak:

¹⁴ Buxoriy Xoji Abdulgʻafur Razoq. Tariqatga yoʻllanma (Naqshbandiya taʼlimoti asosidir). - Toshkent: Movorounnahr, 2003 yil. –B. 46.

Hazrat Bahouddin Naqshband tariqat axloqiy poklik yuksak insoniy fazilatlar asosida qurilgan bo‘lib unda inson halol mehnat qilib halol rizk topib o‘zini o‘z kamol toptirishi, o‘z yashash tarzi bilan atrofidagi ishlarga sahovat izzat hurmatda bo‘lishi yashash joyini go‘zal maskanga aylantirishi lozim.

Mustaqil Vatanimiz yosh avlodning ta‘lim tarbiyasi to‘g‘risidagi fikr yuritib eng avval o‘qituvchi murabbiy ixlos e‘tiqodi belgilovchi ekanligini ta‘kidlash zarur. Naqshbandiya tariqatining butun mohiyat mazmuni insonning insonga ijtimoiy ta‘siri, pok axloqiy ibrat - namuna halol yashash mehnat qilib umr guzonlik mazkur ta‘limot texnologiyasining asosini Tashqil etadi.

Naqshbandiya tariqatining mohiyatini chuqurroq tushinish uchun o‘lkamizda va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va vatandoshlarimiz asoslagan ayrish tariqatlarni qisqacha tahlil qilish joizdir.

Ko‘pgina tariqatlarda tarkidunyo poklanish muridning dunyodan va dunyo ishlaridan uzlat qilib, haq sari intilish deb qaraladi. Tariqat yo‘liga kirgan murid faqirlikni tanlaydi. Faqirlik insonning ongli ravishda qashshoqlik ihtiyor qilishidir. Alloh yo‘lidagi faqirlik bu ehtiyoriy qashshoqlik bo‘lib, botiniy olamning barcha havaslaridan xolos bo‘lib ilohiy fayzni qabul qilishga hozirlanish. Inson kamolotga intilar ekan, u o‘z rabbiga muhtojdir. Shuning uchun inson hamisha rabbiga qarab intiladi, Chunki bandalik najotmondlikdir. Inson faqat olloh nazdida faqirdir. Ammo Ollohga vasliga intilish uchun tarki dunyochilik yagona vosita emas. Chunki mutloq tarki dunyo kabi mutlaq dunyoparastlik ham inson tabiatiga hush kelmaydi. Mutloq tarkidunyo hayotga zid bo‘lib, insonni amalda, kasb hunardan ajratadi. Huddi shunday dunyoparaslik ham insonni ilohiylikdan ma‘naviyatdan uzoqlashtirib, mol-dunyo quliga aylantiradi. Shuning uchun oraliq yo‘lni topish, ya‘ni tarki dunyo qilmay nafs va hirsdan xoli bo‘lib, Ollohga yaqinlashish yo‘llarini izlash muhim hisoblanadi. Hazrat Nashqband «o‘z nafslaringizni yomonlab, tahqir etib turing, chunki kimki haq subhonoxu inoyati birla o‘z nafsini yomon deb tanigan bo‘lsa, bu amal uning uchun osondir».

Professor N.Komilov ta‘kidlab yozadiki. «Tariqat paydo bo‘lib, zohidlik va uzlatga chekinish rasm bo‘lgandan boshlab xilvat va anjuman yoxud xalq bilan va

xaq bilan degan tushunchalar munozaraga sabab bo‘lib kelgan. Hazrati Bahouddin Naqshband ikki tomonni birlashtirib ham xilvat sari ruhiy ehtiyojni qondirish va ham jamoat ichida yashab elga foyda keltirish yo‘lidan borganlar».

Bunda Hazrati Bahouddin Naqshband vosita sifatida o‘z tariqatlari usul va ruknlaridan mohirona foydalanib tariqatning mohiyati payg‘ambar sunnatlariga va Alloh farzlariga zid kelmaydigan aksincha ularni echishni moxirona xal qilish imkoniyatini beradigan oraliq yo‘lni aniqladilar. Bu bilan tasavvufni sunnatga xil asr bo‘lgan rasm-rusum odatlar, bid’atlardan tozaladilar.

Misol uchun Naqshbandiya tariqatidagi «Xilvat dar anjuman» (jamoat ichra xilvat) ruknini olib ko‘rsak. Bahouddin Naqshband buni dar zokir bo xalqu dar botin bo haq (zoxir xaq bilan totnida esa xaq bilan) deb ta’sirlanganlar. Yoki olaylik «Dast ba kuru dil ba yor» (qo‘l ishda ko‘ngil yorda ollohda ham toat-nodatni kundalik ish bilan jahli unutib bajarilishi mumkin.) Xaqqa etishish uchun kishi g‘orlarda chilla o‘tirishi shart emas. Odamlar bilan birga bo‘lib ham botinan xaq yodi bilan yashab qalbni poklash mumkinligini amalda isbot qilindi. Buning isboti sifatida Naqshbandiya shayhlarining hammasi ma’lum kasb bilan shug‘ullangan. Shuning uchun tariqatda ularning jami kunishga shu kasblari taxallus sifatida kirgan. Misol uchun Hazrati Naqshbandiyaning o‘z taxalluslari ham u kishining otalari shoxiga gul-naqsh berganlar. Bahouddin Nakshband bu kasbni davom ettirib, dehqonchilik ham qilganlar¹⁵.

Biz Naqshbandiya tariqatining o‘ziga xosligi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, mazkur tariqatning shoh va gado yoki oddiy odamlar bilan birga podsholar uchun ham birday qulayligini qayd qilmok kerak.

Masalan darvesh Xalil otaning podsho bo‘la turib mamlakatni idora qilish va murid tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shohlik bilan darveshlik birlashtirgan. Bu ko‘rsatadigani, tasavvuf hukmron bo‘lgan, yuzaga kelishida ham Naqshbandiya tariqati ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari Nashqbandiya tariqati topish turk arablarni ma’naviy ruhiy yaqinligini kuchaytirishga ham xizmat qilgan. Chunki Naqshbandiya tariqati

¹⁵ Durdona Mir Kulol vash oxi Naqshband makomatlari. - Toshkent, 1993. –B. 46.

namoyondalari fors-tojik turkiy va arab tillarini mukammal bilganlar.

Bundan tashqari Naqshbandiya tariqatining jahon musulmon davlatlariga keng tarqalishining sababi, uning oddiy xalq hayotiga yaqinligi. Tasavvuf tariqatlarining ko'pchiligida insonning tariqatga kirishi va xaqqa intilishi o'zida ifodani ilmlar orqali yaxshi xulq fazilatlarini singdirishi yomon ishlarni tark qilishi kundalik moddiy xayoti insoniy tirikchiligidan va jamoadan ajratib, yoki tarki dunyochilik qilish orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Naqshbandiya tariqatida xalq bilan birga bo'lib, o'z-o'zini tarbiyalash vositasida ezgu sifatlarni mashq qilish va ibodatlar orqali xaqqa intilishning ta'sirchan usullari nashr qilingan. Insonning halol xati-harakatlari faqat diniy ma'naviyatga ega emas, balki ular uning o'zi uchun va atrofdagi kishilar uchun moddiy va manaviy foydali hisoblanadi. Chunki insonlar yashash jarayonida bir-birlarga turiga tasir kiladilar. Bu jihatdan ular ijtimoiy munosabatlarning faol sub'ekti va obekti hisoblanadilar. SHu jihatdan bu ta'limot insondan yaxshi xulq, ijtimoiy foydali harakatlar yashab turgan jamoasi va jamiyatdan ayri emas, balki ular bilan hamnafas o'zida singdirib boshqalarni ham da'vat qilish va ularga amaliy irfoniy yordam berish orqali amalga oshiriladi.

Naqshbandiya tariqatining boshqa tasavvufiy ta'limotlardan ajralib turadigan tomonlari quyidagilar:¹⁶

1. Uning o'ta xalqchiligi. Xalq, jamiyatdan ajralmasdan rishtalarni bosh keltirib xaqqa etishishni mumkinligi.
2. Xusriya zikri orqali toat-ibodat, rashkilarni ijro etish.
3. Xaqqa etishishda, saqv (xushlilik) va suxra (bexudlik) yo'li orqali borish.
4. Xaqqa etishishga o'ziga xos talimi va tarbiyaviy texnologiya.

Tasavvufning turli ko'rinishi bo'lgan varaqalarda maqsadga erishish yani tariqatining mazmun-mohiyatini anglab, xaq taologa etishishning asosiy usuli zikr hisoblanadi. Tariqatda zikr talim-tarbiya manbasi va vositasi sifatida hizmat qiladi. Zikrning manbasi Naqshband avlodi xususan oyatlari va payg'ambar s.i.v. sunnatlari hisoblanadi. Bularni amalga oshirish zikr texnologiyasi bilan

¹⁶ Zaripova G.K. Bahouddin Naqshband ta'limotida tarbiyaning o'ziga xos texnologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Buxoro, 2006 yil. -B. 14-15.

belgilanadi. Bahouddin Naqshband talimotining o‘zidan oldingi ta’limotlardan ajratadigan yana bir jihati ijtimoiy yoki dunyoviy jihati bilan jiddiy va keskin ravishda ajralib turishidir. Mazkur tariqatda ijtimoiylik bilan diniy-ilohiylikning vositaligida ijtimoiylik ustun turadi yuqorida takidlangandek. Buni «Dast va kori dilba yor» rishtasidan ham ko‘rsa bo‘ladi. Bunda «Dast ba kor belgilovchi, dil ba yordan oldin qo‘yilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Naqshbandiya tariqatiga ko‘pchilik xillarda uning negizi kambag‘al kam ta‘minlangan, shaharlarda o‘rta xol tabaqalar: kichik savdogar hunarmandlar mazkur tariqat muridlari hisoblangan. Bundan ko‘rinadiki Naqshbandiya tariqatining xalq ommasi o‘rtasida tarqalishiga asos ularning manfaatlariga va hayot yo‘llariga mos kelganligidir. Uning xalq ommasiga yaqinligi, bevosita xalqning orzu-istaklarini, ezgu niyatlarini ifodalanganligi kishilarni allohga yaqinlashtirib iztirob va yo‘qchilik dardini unutishi uchun tasalli bo‘lganligidir.

Naqshbandiya tariqatining o‘ziga xos umuminsoniy va axloqiy va to‘g‘risida gapirar ekanmiz, uning yana bir tomoni shiru-shakarlik, zullisoniylik, tilining baynalminal jihatini alohida ta’kidlash zarur. Bu jihatdan ham mazkur tariqat shu yonma-yon yashayotgan o‘zbek turk, tojik va boshqa millatning o‘zaro birlikka mustahkamlash vositasi bo‘lgan, desak o‘rinli bo‘ladi. «Qadim zamonlardan buyon Turkistondagi axolisi asosan birga, bokamti, do‘st-birodar, yaqin qo‘shni, qon-qardosh, vatandosh-qondosh, dindosh bo‘lib yashab kelayotgan turkiyzabon va forsiyzabon xalqlarimizning o‘zaro yaqinligi, hamjihatligi, yaqin qo‘shniligi qudadag‘ay va birodarligidan kelib chiqdi».

SHunday qilib Naqshbandiya tariqati tasavvufda mu’tadil yo‘l bo‘lib inson tabiatidan qarama-qarshi tomonlar nafs, jism va ruh moddiy va ma’naviy jihatlarni tariqat rishnolari orqali o‘zaro kechishtirish, nafs jismni ruhga, moddiy dunyoni ma’naviy olamga bo‘ysundirish texnologiyasining mukammal echimini beradi. Bundan tashqari Naqshbandiya tariqatida muridning erkinligi ruhiy erkinlik bilan harakterlanadi. Mazkur tariqatni murid faqat bir shayxga umrbod mute qilib quyishni pesh qilmaydi.

II BOB. Naqshbandiya tariqatini o'rganish va o'rgatish texnologiyasi yoki ustoz shogird munosabatlari.

2.1. Bahouddin Naqshband ta'limiy-ahloqiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari.

Jonajon yurtimizda ustoz shogird munosabatlari o'zoq tarixga ega. Tariximizda muayyan vaqt ilm va kasb-xunar o'rganish ustoz shogird tariqasida amalga oshirilgan. Buning oqibatida jahon fani va madaniyatiga tamal toshlar qo'ygan buyuk shaxslar etishib chiqqan. Bular Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Farobiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Abu Hamid G'azzoliy va boshqalar. Bular o'nlab, yuzlab dunyoga mashhur shogirdlarni tarbiyalaganlar, Shu bilan birga ustoz shogird munosabatlarning g'oyaviy-axloqiy ishlarni ishlab chiqqanlar.

Tasavvuf ta'limotini yoki tariqqati bilan bir yo'nalishi o'rgatuvchi muhim 3 bosqichni bosib o'tish lozim. Bular: 1) Darvishlik 2) So'filik 3) Faqirlik. Bunda darvishlik yo'li so'filik uchun ilk qadamdir. YA'ni tasavvur ilmining maqomlarga yo'l olishdir. So'filik tasavvur ta'limotini bilish va uning qonunlariga amal qilish bilan o'zini shu ta'minot yo'lga etishdir. Faqirlik yo'li esa mavjud dunyoni barcha sirlarini bilishdir¹⁷.

Ma'lum tariqatni o'rganishni jazm qilgan kishi ustoz-pirga shogird bo'lishi lozim. Murod-murod ya'ni maqsadga intiluvchi odam; Murod esa-Axloq ta'limining vazmi. Muridning asosiy xislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, muridi komil etagini tutib, aytganlaricha so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz solih manzilga eta olmaydi. Chunki odam o'zini o'zi nazorat qilishi qiyin. Toki birov rahnamolik qilib yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi, Buni Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr" dostonida xud-xud va talabgor qushlar misolida yaxshi ko'rsatib berganlar. Xatto eng yaxshi niyatlar ham raxnamoli bo'lmasa, samara bo'lmay, qalbdagi zavqi shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muhabbat isyonga aylanishi xech gap emas. Yo'lini topganu kishi to raxnamo ko'rsatmagan. (Bobur) SHuni e'tiborga olib tajribada pirga yo'l berib iroda-ixtiyorini unga topshirganlar. SHu ma'noda tariqatni irodali ham deydilar. YA'ni irodani shayx irodasiga

¹⁷ Idris SHox. Naqshband Tariqati. -Toshkent, 1993 yil. -B. 47.

muvozonatlashtirish, shayx irodasini o‘z irodasi deb bilish.

Ikkinchi tarafdin bu muridning irodasi mardligi ximmatni sinashni ham bildiradi, murid, murod, iroda so‘zlari o‘zakdosh, zero dunyodan kechib, iloh yo‘liga o‘zini bag‘ishlash ulug‘ mardlikdir, muridga rahbarlik qiluvchi purning o‘zi achchig‘ iztirob yo‘li tariqat makomlarini eson-omon bosib o‘tgan, kalbi iloh ma‘rifatiga limmo-lim orif inson bo‘lishi kerak. Pir har jihatdan muridga o‘rnak bo‘lishi darkor, ham bilimning chuqurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham ko‘nglining pokligi, nafsini maxf etganligi va xokazolar bilan ajratib turishi sababli so‘zim va harakati bilan, suhbat va nazari, tadbiri va ximoyasi bilan muridga ta‘sir o‘tkazmasligi lozim.

Koshifiyning shayxlik ruknlari keltirildi. Pir muridning shodligini ham, g‘amini ham baham ko‘rgan, uni nasixat, tanbex va ilmi so‘zlar, harakatlar bilan ruhlantirib quyidan yuqoriga qarab vazifalar ham murakkablashib boravergan. Koshifiy yozadi: «Agar haqiqat pirlari kim deb so‘rasalar, buning alomatlari quyidagilar deb javob bergil: tunlarni bedor o‘tkazish yomonlar bilan o‘tirmaslik, ilm o‘rganish, g‘iybat va yolg‘ondan saqlanish, odamlar hursandligini istash va shu xislatlarni o‘z muridlarini etkazish».

Bizning tariximizda bunday munavvar qalbli notiq insonlar kam bo‘lmagan. Ular o‘z muridlarini farzandlaridek yaxshi ko‘rganlar. Pir xech qachon muridlariga ko‘z olaytirmasligi, biron bir yo‘sinda ishora qilmasligi, aksincha kishida biror mushkul ish tug‘ilganda darrov yordam berishi mushkulni xal qilish kerak. Muridning mushkuli faqat jiddiy qiyinchilik emas solihlar buni xech qachon e‘tiboga olmaganlar, mushkul deganda tasavvuf axli ma‘naviy muammolar yuz beradigan talablar tug‘iladigan savollarni anglaydilar. Pir ana shularga javob topib, muridni qanoatlantirishi shart. Agar qanoatlantirishga ko‘zi etmasa muridni boshqa o‘zidan kuchlirok shaxsga tavsiya etadi. Shuni ham aytish kerakki solixlarni iste‘dodi xilma-xil bo‘lganiday pirlarning murabbiylik qobilyati ham turlicha bo‘lgan. Ba‘zi shaxslarga muridga tarixiy odobini o‘rgatganlar ya‘ni uni taslim va itoatga keltirish man-manlik xirsu xavo kabi tuyg‘ulardan ham etish bilan shug‘ullanganlar, ba‘zi shaxslar muridga ruhiy karomati mo‘jizalari bilan

ta'sir etganlar, yana bir kism shaxslar shogirdlariga tasavvuf asoslarini o'rgatish nazariy bilimlar bilan qurollanganligiga e'tibor qilganlar.

Masalan Hazrati Bahouddin Naqshbandning bir necha pirlari bo'lgan. Naqshbandning yozishicha, Xoja Hazrati Bahouddin valiylarni uch toifaga bo'ladilar. Ular: «muxallid, komil va muhम्मal. Muxallid eshitganicha amal qiladi. Komil o'z vujudidan chiqib ketmaydi, mukammalning tarbiyatisiz mukammal bo'lmaydi»¹⁸

Tariqat yo'lini ixtiyor qilgan muridga eng avvalo istak, iroda o'zining ichki va tashqi intilishlarini shariatni o'rgatishga purning ko'rsatmalarini bajarishga bo'ysundira olishi shart. Hazrati Bahouddin Naqshband aytardilar «Iroda, taslim va ixtiyorsizlik bu ulug' ishdir». Bizning ixtiyor qilganimiz «al-irodati tarxul-irodati fil-irodati» degan so'zdir, murid o'z xoxishini boshlab, o'z muktadasining xoxishi ichiga butunlay ko'milib ketishi kerak. YA'ni o'z xoxishlaridan voz kechib pir ko'rsatmalariga so'zsiz rioya qilish lozim.

Hazrati Bahouddin Naqshband pir sifatida muridlarni tariqatga tayyorlashda turli usul va vositalardan foydalanganlar. Bular suhbat, valiylik ya'ni valiylik karomati ko'rsatish jazava. Bularni tanlash muridning holatiga va tariqatni egallash darajasiga bog'liq holda bo'lgan. Muridni avval suhbat orqali sinab, undagi istak va kobilyatni aniqlab, shu asosda ma'qul yo'l tanlangan. "Tolib avvalo bir muddat bizning do'stlarimiz bilan hamsuhbat bo'lishi zarur, toki unda bizning suhbatimizga nisbatan qobiliyat paydo bo'lsin"-deb quyidagi she'riy baytni takrorlardilar: Nabin vaqti suftan mardi xannon, Ba shogirdan dixad durri xatarnok.

Mazmuni: Ko'rmaysanmi, durga shakl beruchi durni teshayotgan paytda, xatarnok (nozik) durni o'z shogirdiga beoradi.

"Ixtiyor bizda, agar xoxlasak tolibga jazava orqali ta'sir qilamiz. Murshid (pir) bu- kozik tabib muridning xoliga muvafaq bo'lgan davoni qiladi".

Tariqatni o'rganishda toliblar o'zaro bir-birlari va guruh tarzida suhbat qilishlari ko'proq foydali bo'lishini alohida takidlaganlar. "Agar bu yo'l

¹⁸ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf xaqida tasavvur. -Toshkent, 2004. -B. 78.

toliblaridan bir guruhi bir-birlari bilan hamsuhbat bo'lsalar bu suhbatda xayru baraka ko'p bo'ladi. Umid borni, bu ishga doimo amal qilinsa oxiri xaqiqiy iymon bilan yakunlanadi"

Bahouddin Balogardan aytar edilar: "Xaqning xalqi bilan emas xaqning o'zi bilan mushvarat (yonma-yon) bo'lmoq kerak". Tariqatni chuqur o'rganishdan oldin musulmonchilik asoslari Qur'on, Hadis payg'ambar sunnatlarini o'rganishi shart. Aytar edilar "Musulmonlik bu-iloji boricha xukmlarga bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan o'zoq bo'lib, bularning hammasi nuri safi va rahmat hamda viloyat darajasiga etishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va maqomlariga mana shu sifat parvarishi orqali etiladi" deb ta'kidlaganlar piri murshid.

Aytar edilar: "Kishi o'zining nafsiga tuxmat qilishi kerak. Kimki Xan subxonaxu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning xiyla-nayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi. Bu yo'ldan yuruvchilarda o'zgalarning gunohini ham o'zlaridan deb bilish xollari ko'p bo'ladi." Musulmonlik ishlarini bilish muridni tariqatini o'rganishida dastlabki bosqich bo'lib, uni Tashqiliy jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatdan tayyorlaydi. SHulardan so'ng tasavvur ta'limotini o'rganishga o'zini tariqatga bag'ishlashi foydali bo'ladi. Tariqatni o'rganish esa ustoz pirsiz bo'lmaydi.

Tasavvuf ilmdagi etuk ustoz qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak? U kishi avval Qur'oni Karimni chuqur biluvchi, uning bilimlarini nazariy va amaliy amalga oshira oladigan ustoz lozim.

Ustoz-shogird, ya'ni tariqatni o'rgangan kishining yosh o'qib o'rganuvchiga o'rgatishi eng muhim udum hisoblanadi. Buni albatta ancha ijobiy tomoni bor. Ko'pchilik xollarda islom ta'limotini o'rganishda yakka-indivudial ta'lim oluvchining o'zi say'i-harakati xal qiluvchi hisoblanadi, tariqatni o'rganishda solih ma'lum darajaga erishgan piri-murshiddan ta'lim olishi ijobiy hisoblanadi. Buning ibratli tomoni shundaki, tariqat ma'lum yo'l-suluh sifatida yaxshi bir ta'limot hisoblansada uning asosiy vazifasi muridga axloqiy ta'sir qilish, eng avvalo uni shaxsiy axloqiy jihatdan uni suyauxni o'rganishga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bunda pir - murshid yoki muridga

eng avvalo shahsiy sifatлари, yurish-turishi, xayot tarzi, axloqi bilan ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi. Ikkinchidan, Tariqatni urganish, uni axloq-odobi darajasida muridga singdirishga amaliy va nazariy yordam beradi. SHu yo'l orqali muridni xato kamchilik, adashishdan asrab tariqat mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va unga amal qilish yo'l-yo'riqlarini egallashni osonlashtiradi¹⁹.

Ustoz-shogird yoki pir-murshidlik boshqa tariqatlarda bo'lganidek Naqshbandiya tariqatida ham muridni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Manbada keltirilishicha Hazrat Bahouddin aytar edilar: «Bu yo'ldan yuruvchilarga iltijo (Niyoz) o'zni xor tutish (maskanat) va oliy ximmat kerak, u odamni manna shu eshikdan kiritadilar, biz nimani tanlagan bo'lsak, shundan topdik». U kishi takrorlardi:

Injo Ruhi zardu toman tanda harand,
Bozor chi kasabfurushoni unchar ast.

Tarjimasi:

Bozorda beqasamlar va boshqalar bo'lsa ham,

Bu erda faqat sirgangan yuz va tanda liboslar sotib olinadi. Hazrati Bahouddin o'z muridlariga qator talablar qo'yar edilar. Eng avvalo tariqat yo'lini tanlagan kishi o'z nafsini tin olishi, bu yo'lda yuruvchi o'z nafsini fir'anning nafsidan yuz marta battar deb bilmasa, demak bu yo'lda emasligiga iqror bo'lishi zarur. SHu yo'l bilan murid, «xaqiqiy murshid inoyati orqali axloqni hamda yoqimsiz fe'llarni o'zgartirishi bilan nafsga qarshi kurasha oladi». Nafsini tiyib kishilar bilan yonmayon yashasada «Xaqning o'zi bilan mushovarat bo'lmoq kerak», -deb ta'kidlaganlar. YOki Abdol on, ki u mubaddal shavad Hamrash az tabdili YAZdon xall shavad. Tarjimasi: Ulki abdol, fe'lin tamom o'zgartirmish, YAZdon inoyatidin obdan qiyomga etmish. Naqshbandiya tariqatida muridga qo'yiladigan eng muhim talab tavfiq, koxat, sabr, o'z yomonligini bilish uning xiyla nayranglarini anglash orqali shukr qiluvchi banda sifatini olish. SHunday yo'l tutsa, muridni sulux mohiyati, axloqi asosini tushunishi osonlashadi, o'zini gunoh qilishdan tiya oladi va tariqat talablarini to'la bajarishga erisha oladi. Hazrati Xoja aytar edilar:

¹⁹ Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. -Toshkent: Fan, 2005. -B. 98.

«Musulmonlik bu-iloji boricha xukmlarga bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoqlab bo'lib, bularni hammasi nuri safoga va rahmat hamda viloyat darajasiga etishish vositasidir.

Naqshbandiya tariqatini kishilarga o'rgatish ayniqsa, muridni bosqichma-bosqich suluk bilan tanishtirishda ham ma'lum tizim, metodika yoki xizirga lavr tilida-genpologiya mavjudligini payqash qiyin emas. Bu metodika o'z ibrat namunasi, axloq-odobi, bilimi, orqali ta'sir qiladi. O'z navbatida murid ham aql-zakovati, irodasini ishga solishi, o'z piring ko'rsatmalarini to'la bajarishi lozim. Hazrat pir aytar edilar: iroda, taslim va ixtiyorsizlik bu ulug' ishdur. Bizning ixtiyor qilganimiz «al irodatu tarqul-irodati fi-l-irodati» degan so'zdir, murid o'z xoxishini tashlab, o'z mutadosi (piri) ning xoxishi ichiga butunlay ko'milib ketishi kerak.

Naqshbandiya tariqatida asoslangan bu usul keyinchalik pedagogika va psixologiyada XX asrda 6 asr so'ng inson aqliy va ruhiy olamini bosqichma-bosqich nazariyasida rus olimlari Galperin N.F. Tamazinlar tomondan asoslandi. Inson odobi qadamba-qadam anglashi orqali takomillashtirildi. Tariqatlarda piru murshid darajasida ko'tarilish maqomat va martaba ya'ni qonda va talablarini egallash orqali bo'lishi ta'kidlanadi. Maqomat arabcha maqomning ko'pligi bo'lib, urin joy „martaba darajani bildiradi. Demak biron tariqat namoyondasining maqomati deganimizda o'sha kishining muayyan tariqatda tutgan o'rni, qilgan amallarini tushunish mumkin. Tariqat odobini egallash unga murakkab va ko'p bosqichli jarayondur. Xoja Boxouddin aytar edilar: «Bu yo'lni talabida bo'lganlarga quyidagilarga amal qilish shart: At-tariqatu kulluxo odobun, bakullu xolun adabun va bakullu makolun adabun, faman lozamal adaba bolaga muballagur-rishol». Ma'nosi tariqat yo'li odobdan iboratdir, har bir xoll va har bir maqomning odoblari bor kimki odobni ushlash uni balog'at axlining balog'atiga etkazadi. Odobning mohiyati nimada? Odob bu xulkni chiroyli qilish so'zni va fe'lni soz qilish. Har bir kasb-xizmat o'z odobiga ega. Hazrati Xoja ta'kidlab «Adabul xilvatu aoza tiddu alomatuxu kabulul amal va lubuduyatu mulozamatul adabi va-t-tug'yonu sadul adabu» ya'ni ma'nosi xizmat odobi ulug' batdan yaxshiroq uning belgisi kabulul tug'yon esa odobning bo'zuqligidur. Har bir xizmatda tariqatda ham ma'lum axloqiy qoidalarga rioya qilish kasbga bo'lgan ixlos va sadoqat bo'lishi bilan shaxsni

kamolotga erishishini ta'kidlab, unga izzat ikrom keltiradi va eng muhim kasbini ulug'laydi. Tolibi ilim tariqat odoblariga rioya qilib ham u kamolotni ta'kidlasa ta'limotiga nisbatan boshqalarning izzat hurmatini oshirishga olib keladi. Kasbni ulug'lab inson ulug'lanadi, izzat hurmat topadi, Kasbni egallash orqali inson obro'u e'tibori ortib ulug'lik va ulug'vorlikka erishadi. Hazrat dedidar «Adabni saqlash muhabbat samarasi, ya'ni muhabbat darajani muhabbat ulug'i hamdir». Kasb odobiga rioya qilmaslik ham kasbni obro'sini pasaytiradi va tolib ilmini kishilar e'tiboridan qolishiga olib keladi.

Tariqatni o'rganishda adabning vazifasi tolibda intizom va u orqali ixlos e'tiqodni shakllantirish va tariqat toliblariga to'la rioya qilish unga har qanday ruhiy va jismoniy xolatga ham hiyonat qilmaslik mas'uliyatini tarbiyalashdir. SHu asosda Hazrati Bahouddin Naqshband murid qadamba-qadam tariqatga, pirga nisbatan odobni saqlab, payg'amabar va haq ta'ologa nisbatan odob qilib, darajama-daraja payg'ambar sunnatini egallab haq subxonaxu va ta'ologa etishadilar. Bu fikrlarni hazrat quyidagicha bayon qilganlar. «Bir odob bor u haq subxonoxu va ta'ologa nisbatan bo'ladi, bir odob u payg'ambar Solloloxu Alayxi Vassallamga nisbatan bo'ladi ya'ni bir odob bor u mushoxidlarga nisbatan bo'ladi. Haq subxonu va ta'ologa nisbatan bo'ladigan odob shundaki uning farzinlarini zoxirda va botinda to'liq bandalik bila nado qilinadi va undan boshqa har qanday narsadan yuz o'giriladi. Payg'ambar Solloloxu Alayxi Vassallamga nisbatan bo'lgan odob shundaki o'z «Fatobiuni» (menga itoat qilinglar) maqomiga to'liq olib kiradi va birga shu xolatga nisbatan hurmat qoidasini to'liq saqlaydi, mushoxidning xal qiluvchi mushkullari Hazrati Haq subxonoxu irodasi orqali u bilan ekanini anglashi va har kim hamda har bir narsa uning izzat ostonasiga bosh qo'yanini bilishi kerak shayx (pir)ga nisbatan odobning kotib va lavozimining sababi shuki ular (shayxlar) sunnatga to'liq amal kilish orqali haq subxonoxu va ta'ologa etishganlar».

Pir tolibning imkoniyatlarini bilish kerak uni tariqatini egallash darajasiga qarab muomala qilishi, uni ortiqcha qiyinchilik va zo'riqishlardan asrashi lozim Hazrati Bahouddin aytar edilarki piring har kim bilan qilgan muomalasi usha odamning qobilyati darajasiga mos bo'lishi lozim. «Agar tolib boshlovchilardan bo'lsa, uning

yukini teng ko'tarishadilar va uning xizmatini qiladilar.» Hazrat davom ettirib ta'kidlaydilarki, «aqli murshid (pirlar) sayyod (ovchi) kapidurlarki, noziklik bilan va yaxshiy jonivorni qo'lga oladilar va tolibni yaxshilik sifatidan odamlilik maqomiga etkazadilar. Bu toifa aqli irshod hikmat kabi chiroyli tadbir qo'llab soxib tabiatan tolib bilan muomala qiladilarki, oxiri uni buysundiradilar sunnatga tobe qilish yo'liga kirgizadilar hamda visol maqomiga olib chiqadilar.» Tariqatga kiruvchi solih bilan pir o'rtasidagi munosabat o'zaro ishonch va hurmatga asoslanishi va shu asosda tolibning Tariqat borasidagi bilimlari to'lishib mustahkamlashib borishi lozim. Pir bilan tolib o'rtasidagi noqobil ko'pol muomala tolibning ta'limotiga munosabatini o'zgarishiga, unga nisbatan e'tiqodini barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Piru murshid bu borada aytadilar: «Solihning bari ishlar yaqin (ishonch) asosiga qurilgan bo'lishi zarurki, to natija yaqin (ishonch) orqali zuxurga kelsin.» «Ma'rifatga tavsiliy» (to'lik bilim) solih va toliblar maqsadining so'ngi pog'onasi bo'lib, bu pog'ona mazkur sifat orqali xosil bo'ladi. Tolibda axlullox (avliyolar) haqiqatiga nisbatan bo'lgan xusni xaqida «CHiroyli e'tiqod» yaqin ishonchsiz xosil bo'lmaydi e'tiqod esa arzimagan narsa bilan o'zgarishga uchraydi. SHu sohada pir tolibni asta sekin tariqatga ishontirib uni sayoz bilimini chuqur puxta bilishga aylantirib, dalilu hujjat martabasi orqali kashf va ayonlik martabasiga etkazadi. Hazrati Xoja ta'kidlaydilarki, tariqatni o'rganishni muhim metodlaridan biri zikr aytishni o'rganishdir Ammo buni har kimdan emas, balki komil pirdan o'rganmoq lozim. Bunda tolibning vazifasi uni qunt bilan o'rganib, amalda qo'llashi. SHunda «Rushnolik xosil bo'lishi» mumkinki, bu to'ligincha tolib harakatiga bog'lik. Bu borada hazrat aytar edilar: «Talqini zikr»ni (zikr aytish qoidasini) komilu mukammal pirdan ta'lim olish kerak. To ta'sirni bilinsin va natija xosil bo'lsin²⁰. O'qni sulton o'qdonidan olmoq kerak, toki ximoya qilishga arzisin, Biz «talqini zikr»ni bo'zurgvor shayx Xoja Muhammad Boboiy Samoyiddindan olganmiz» Men deb ta'kidlaydilar Xoja Bahouddin Hazrati Azizondan ikki xil zikr qilishni o'rgandim. Biri taxr va biri xufya xufya zikri kuchli va avlo bo'lgani uchun biz uni ixtiyor qildik. Zinda

²⁰ Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni. Makomati Yusuf Hamadoni. - Toshkent, 2003. -B. 46.

«vakufi adadiy» (tok aytish) ilmi laduniy hisoblanadi. Zikrdan ko‘zlangan maqsad-zikr aytuvchini «Kalimai tavxid» haqiqatiga etishishdir. «Kalimai tavxid»ning mohiyati Allohni qalbgga naqsh qilish, undan boshqa narsani butunlay ketkazishdir. Vaqufi adadiy»dan maqsad vaqtni xis qilish yoki «»vaqufi zamoniy»dir. «Vaqufi zamoniy»dan murod tolibning doimo o‘z ahvolidan xabardor bo‘lishi, «Har bir zamonda o‘zining xoli va sifati qanday, shukr paytimi, o‘zr paytimi buni bilib kalbga sayqal berishi lozim. Zikrning davomiyligi maqsadga etishish bilan belgilanadi. Maqsad esa haq ta’olo vaslig‘a etishish, ya’ni uning yagonaligi tavhidni anglashdir.

Hazrat Bahouddin Naqshband ta’limoti ma’lum pedagogik tizim va inson ruhiy olami mohiyatiga asoslangan ta’limot, desak hato bo‘lmaydi CHunki uning inson imkoniyatlariga mos kelishi xavoiiy, nazariy uylab chiqarilgan emas, balki buyuk piri murshidning o‘z shaxsiy tajribasidan 40 yildan ko‘proq eksperimental sinovdan o‘tgandir. SHundan bo‘lsa kerak tariqatni o‘zlashtirish metodi hisoblangan zikrni qachon aytish ko‘proq foydaliligi ham unda asoslangan. Xufiya zikr «Subhdan avval, shomdan so‘ng xilvatda va xalqdan o‘zokda» amalga oshirilmog‘i lozim. Xufiya zikrni Hazrat «vaqufi kalbiy» ham deb aytadilar. «Vakufi kalbiy»tariqat mohiyatini qalbgga toqilish uchun xizmat kilsa, «vakufi adadiy» rennik jarayonlarni ta’lim olishga yo‘naltirish uchun xizmat qiladi. Hazrat aytadilar: «Zikrda adadga rioya qilish diqqatni jamlash uchundir, chunki nazar parishondir».

Zikr paytida tolib umuman tashqi dunyoni unutib, haq ta’olo ilmini qalban egallash uchun butun borligi, xissiy va aqliy olamini unga jalb qila olishi zarur. Tashqi olam bashariyat vujudi unutilib, tolib o‘z ruhiy olamini ilohiyga yo‘naltiradi. SHunda o‘ziga xos ilohiy jazava xosil bo‘ladiki, bu esa haq ta’oloni bilishni osonlashtiradi. Bunda nafas olish va uni chiqarish muhim rol uynaydi. Nafasni zoya ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uni ehtiyot qilish muhim hisoblanadi. Bir nafasda uch marta aytish, agar natija bo‘lmasa, yigirma bir marta takrorla, shunda ham bo‘lmasa, ishni ya’na boshlash zarur.

Yuqoridagi kabi qoidalarga rioya qilish tolib xayolini bo‘linmasligiga, xayolga

keladigan ortiqcha narsalarni bo‘linmasligiga, xayolga keladigan ortiqcha narsalarni kuvab yuborishga asos bo‘ladi.

SHunday qilib Naqshbandiya tariqatida belgilovchi zikrni xufiya bo‘lib, u «Dilni tozalovchi qurol bu-zikr, odam uchun haq subxonoxu tomon yo‘l faqat doimiy zikr aytish orqalidir.» Bu jarayonlarni tezlashtirish yoki ma’lum sabalarga ko‘ra solihda tariqatni o‘rganishga ishtiyoqni pasayganini sezgan pirlar o‘zlaridagi basiriy quvvatlardan, ya’ni avliyolik, vakillik hisoblaridan ham mohirona foydalanganlar. Professor N.Komilov pirlarning bu boradagi karomatlardan ustolik foydalanganliklaridan ibratli misollarni keltiradi. Rivoyatlarda keltirilishicha SHams Tabriziy Jaloliddin Rumiy bilan uchrashganda uning qo‘lidani kitobini olib xovuzdagi suvga otib yuboradi. Jaloliddinning ko‘ngli achiganini ko‘rib kitobni yana qaytib suvdan oladi. Ammo suv kitobga xech ham ta’sir qilmagan bo‘ladi. SHayx Najmiddin Kubro Tabrizda Bobo Farangi sufiy bilan uchrashadi. Bobo Farangi Najmiddin Kubroga va u bilan uning qabuliga kirmokchi bo‘lganlarga kiyimlarini buyuradi. Ular Bobo Farang aytganini qilib, ichkari kirib utiradilar. Birozdan keyin Bobo Farangda kuchli ruhiy o‘zgarish iz beradi. O‘ziga kelgach, xirkasini echib Najmiddinga Kubro bu vaqtda ulamodan tafsirni o‘rganmokda edi, kitob ham ohirlanib, ikki kunlik saboq qolgan edi. Najmiddin Bobo Farang bilan uchrashganinin ikkinchi kuni yana avvalgi ustozini oldiga borib saboq olmoqchi bo‘lganida Bobo Farang paydo bo‘lib, «Men kitob mutolasini endi senga zararli deb aytdimku, Yana kelding» deya uni axloqiy-daliliy ilmlar bilan shug‘ullanishini ta’kidlaydi. Chunki Najmiddin Kubro aqliy bilimlarni etarli egallab, unda botiniy-laduniy ilm xali etarli emasligini Bobo Farang fahmlagan edi. SHuning uchun unda aqliy va botiniy-zavqiy bilimlarning omuxtaligini ta’minlash uchun Bobo Farang bosiriy ilmlar bilan shug‘ullanishni to‘g‘ri maslahat beradi. Pir-murshidlar solihdagi tariqatni egallashga bo‘lgan ishonchining mustahkamligini sinash, yoki aytarli kamchiliklarini butkul bartaraf qilish uchun o‘zlari ixtiyoridagi karomatlardan o‘rinli yoki hozirgi fan tilida aytsak ijtimoiy - pedagogik trening tarzida foydalanganlar. Piring karomati solih ko‘z o‘ngida mu’jizadek bo‘lsada uni o‘zi va shayx tariqat to‘g‘risidagi tasavvurini bir onda o‘zgarishiga sabab

bo'lgan. Hazrati Naqshbandning o'zlari ham vaqti-vaqti bilan tariqat talablarinin muridlar bajarishini muhokama qilib, ular faoliyatcha tuzatish korreksiya kiritganlarini Idris Sharh yozgan. Hazrat Bahouddin Naqshband doimo o'z botiniy ahvoliga nazariy va xifzu hisob qilib tekshirib turishini ma'lum tizim sifatida qaragan. Insonning ollohga intilishi susaymasligi o'zini dunyo mehriiga berilmasligi uchun kuzatishi va tuzatishi muqarrar muhim usul sifatida qaralgan, shunda u o'zini nafs orqali bo'shatib iroda ixtiyori qaysi tomonda xaqidami yoki haqdami aniqlab turishi zarurligi asoslangan. Bu esa uni o'z botiniyga safari orqali kishining botinga safari qanchalik kuchli bo'lsa o'zini anglashi, «Zotan o'zingga ketish-o'zidan ketish (o'zini tark etish) demakdir va ayni paytda bu o'zingga qarab borishdir ham. Chunki o'zingni tark etmak-o'zini tanimoqdir» (N.Komilov). u bilan birga Bahouddin Naqshband o'z tariqatini o'rgatishda shogirdning imkoniyatlarini ustalik bilan hisobga olgan. Unda avliyolik va valiylik xususiyatlarining mavjudligi muridning ichki xissiyotini bilish, uning imkoniyatlarini aniqlash va hisobga olish uchu asos bo'lgan.

Tariqatni o'rgatishda murid boshlang'ich xolatda, ya'ni rivojlanishda bo'lsa uni o'rganishga doir hatti-harakatni to'g'ri amalga oshirishga alohida e'tibor berish kerak. Bahouddin Naqshband tariqat mashqlarida insonning ma'naviy olamiga yo'llovga o'zlarini topish orqali uni kamolotini amalga oshirishni muhim hisoblaydilar.

2.2. Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-pedagogik mohiyati.

Har qanday jamiyat o'z a'zolari tomonidan axloqiy diniy huquqiy talablarni bajarishini nazorat qiladi. Bunda shaxs o'z oldiga qo'yilgan talablarni anglagan holda o'zida ijtimoiy nazariy talablari bilan birikib ketuvchi va shaxsning to'lik ijtimoiylashuvini ta'minlovchi ko'nikmalarni shakllantiradi, ammo ijtimoiy nazariy hamisha ham etarli darajada samarali bo'lmaydi. Buning boisi alohida individlar taqiqning hamma qabul qilgan shakl va tizimlariga ko'pincha salbiy munosabatda bo'ladi. Bu ob'ektiv sabablar ham shaxsning sub'ektiv sifatlari bilan oldindan belgilangan holdir. Ijtimoiy-nazariy shaxs ijtimoiylashuvining boshqa yo'nalishlari, masalan ijtimoiy tajriba muomalaga ham ta'sir qiladi. Insonni o'z-

o'zini ijtimoiy talablariga muvofiq nazorat qilishda din muhim rol uynaydi. Ilohiy nazariyalar, jumladan islom dini ham xalq ongiga axloq orqali singdiriladi. Insonga ta'sir ko'rsatishning boshqa usullariga qaraganda ilohiy ta'sir insonning nozik xislarini, ruhi orqali amalga oshirilishi bilan ham kuchli hisoblanadi. Bundan dinning inson hayotining mazmuni, uning hozirgi real dunyodagi holati, yurish turishining oqibati jannat, boki dunyo uchun zamin hozirlashi kabi talablari kishilarni ruhan uylantiradi²¹. Bu xususiyatlar tasavvur ta'limotida va uning ko'rinishlaridan biri bo'lgan Naqshbandiya tariqatiga ham mos xususiyatdir. Markaziy Osiyodagi musulmonchilik dini tarixidan ma'lumki Movarounnaxr va Hurosonda yashagan axli ilmlar «ulumi mutodavala» dunyoviy ilmlarini egallab bo'lganlaridan so'ng odatda ilmu xol (avliyolik ilmi) ni egallashga qo'l urishar, birorta murshidga qo'l berib murid bo'lar va suluhga kirar edilar. XIV asrdan keyin Markaziy Osiyoda mushhur bo'lgan suluk Xuja Bahouddin Muhammad asos solgan Naqshbandiya suluki edi. Bizning davrimizda ham nomlari mashhur bo'lgan Xoja Axror Vali, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham Naqshbandiya sulukiga mansub bo'lganlar. A.Jomiy «Nafoxiy ul-uns», A.Navoiy «Nasoyi ul-muhabbat» asarlarida Bahouddin Naqshbandga maxsus bob bag'ishlaganlar. A.Navoiy bir qator dostonlari va g'azallarida ham u kishini ta'riflab ajoyib misralar yozgan.

Tariqat shayxlarining fikr va axvollari safar yoki mukimlik borasida har xil bo'lgan. Ulardan ba'zilar avvalda safar qilishadi va ohirda mukim bo'lishadi ba'zilar esa avvalda mukim bo'lib ohirda safar qiladilar. Yana ba'zilar borki avvalda ham ohirda ham safar qilaveradilar va mukim turmaydilar. Bu to'rt toifaga safar qilmoq va mukim turmoqda o'zlariga xos sodiq niyat va to'g'ri maqsad belgilovchi hisoblanadi.

Ammo Naqshbandiya tariqatida safar va mukimlikda o'ziga xoslik shundaki avvalda ular safar qilib birorta aziz xizmatida va uning xuzurida mukim turadilar. Biroq o'z yurtlarida shunday kishini topsalar tarki safar qilib uning mulozamatida

²¹ Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ayrim masalalari. Mas'ul muharrir prof. K.Zaripov. - Buxoro, 1994 yil. –B. 96.

bo‘lishida va ogohlik malakasini oshirish uchun qattiq harakat etadilar. Malakka xosil qilganlarida esa ularga safar-u mukimlik barobar bo‘lib koladi.

Hazrati Eshon (Ubaydullo Axror) aytadilarki avvalda safar qiluvchiga parishonlikdan o‘zga foyda yo‘q. Solix bir kishining suhbatina etishdimi demak unda hamisha ishtirok etish chidam xislatini xosil qilmoq lozim. Xojagonlar tariqati malakasini egallaganlar istagan erga borishi mumkin.

Tasavvurda bir qancha suluklar mavjud. Chunonchi Sukrovardiya, Kubraviya, Yassaviya, Qodiriya, CHashdiya, Kalandariya va boshqalar. Hazrati Naqshband asos solgan suluk Naqshbandiya «Naqshband» so‘zidan olingan bo‘lib Bahouddin Hazratlarining laqab yoki taxalluslari bo‘lib u kishining asosiy ota kasbi matoga naqsh solishdan kelib chiqqan. Bu so‘zning tasavvur ta’limotiga nisbatan rasmiy ma’nosi-muridning qalbiga olloh muhabbatini naqsh kabi singdirish, ta’limotni mukammal egallashni ham bildiradi. Bundan tashqari Naqshbandiya sulki boshqa sulklardan kishining yashash tarziga o‘ta yaqinligi tasavvurni o‘rganishni kundalik harakat ehtiyojlar bilan omuhta olib borish, diniy ta’limotni o‘rganishni hayotiy oddiy insonning mas’uliyatlar bilan birgalikda olib borish bilan farqlanadi. Naqshbandiya sulki qo‘l mehnati bilan halol ter to‘kib hayot kechirishga asoslanadi. Hazrati Bahouddin Naqshbandning mashxur «Dilbayoru dastbakor» shiorlari aynan mehnat qilib yashashni anglatadi. U kishi o‘z ovqatlarini ziroat orqali topar erlariga don, sabzi, turp, piyoz ekar, erlarin xaydash-qo‘sh ekishga yaraydigan xo‘kizlarni ehtiyot qilib asrab, qo‘y va sigirlaridan doimo boxabar bo‘lib turardilar. Bu esa paygambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning qo‘y boqib tijorat qilib yashagan sunnatlariga mos kelar edi. Zotan Rasulloxning o‘zlari: «Haqiqiy musulmon bu dunyoning u dunyoni unutmaydi, u dunyoni deb bu dunyosini qo‘ldan bermaydi» degan edilar. SHuning uchun Naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qiluvchilar o‘z oilasini obod qilish fuqarolik mas’uliyatlarini ado etish, tijorat ya’ni shaxsiy va ijtimoiy burchlarini bajarishni ham o‘zlari uchun farz hisoblaganlar. Mazkur sulukdagi «Dastbakoru dilba-yor» shiorlarini oladigan bo‘lsak bunda ollohga toat ibodat diniy yoki tariqat talablarini bajarish asosida harakat, ishlash mehnat qilish yotadi. O‘z navbatida mehnat qilish

halol rizq topish toat ibodatni haqiqiyligini pokligi belgilagan qolaversa mehnatning o‘zi ham toat ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Ammo mehnat toat ibodatga buysundirilgan. Mehnat orqali inson o‘zini o‘z qadr qimmatini, o‘z shaxsiy mehnat imkonitlarini aniqlab, uni ibodatga bo‘ysundirgan. Ibodat va mehnat o‘zaro chambarchas bog‘liq, ammo uning asosida har bir kishi o‘zining bandalik burchini ado etish, halol mehnat qilish va o‘zining olloh oldidagi bandalik mas’uliyatini unutmasligi muhim hisoblangan. «Dastbakor» (inson faoliyatini mehnatga yo‘g‘rilganligi) ni avval quyilish «Dilba yor» (qalb ollohga yo‘g‘rilgan hisoblangan) ning keyin ikkinchi jumla sifatida quyilishida ham ma’lum mantik, mantik qat’iylik bor. Hazrati Naqshband ta’limotida «Dast bakor» birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Inson mehnati uning yashashi moddiy ehtiyoji uchun muhim bo‘lib, «Dil ba yor» - qalb xudoga yo‘g‘rilgani poklik e’tiqod uchun. Jumladan mehnat ham halol bo‘lish lozimligi o‘qtiriladi. Bunda biz Naqshbandiya tariqatining haqiqiy mohiyatini, ya’ni olloh ta’limotini qalblarga naqsh kabi singdirish amaliy va nazariy yoki zohiriy va botiniyda o‘z ifodasini topganligini, Naqshbandchilik bir shakl yoki qobiq emas mohiyat va mazmun jihatidan tariqatga mosligini ko‘ramiz. Amaliy harakat, inson faoliyatining tashqi zoxiriy tomoni bilan olloh ilmini qalban qabul qilish dialektik bir biriga uyg‘unlashadi²².

Shaxsning ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib shaxsiy va ijtimoiy xayotdan ajralib qolib, insoniy maxdudlikka (ajralib qolish) berilmasligi, mehnat va ibodat uyg‘unligi Naqshbandiya tariqati ijtimoiy mohiyati tez tarqalishiga turli xalq va elatlarning o‘ziga jalb qilishiga asosiy sabablardan biri desak xato bo‘lmas.

Bundan tashqari Naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qiluvchilarning mazkur ta’limotni egallashda ham kishilar ya’ni tariqatni o‘rganuvchilar bilan ular atrofidagi kishilar munosabatlarida ham farq qiluvchi tomonlar mavjud. Naqshbandiya tariqatida «Zikri ilohiya» (ovoz chiqarib) emas, balki «zikri xufiya» (ovoz chiqarmasdan), tariqat talablarini ado etish yoki o‘rganish asosiy hisoblanadi. Zikri ilohiyada muridlar pir oldiga yig‘iladilar va raqsu simo bilan tasavvufona g‘azallarni oxang bilan o‘qiydilar, boshqalar esa raqsga tushib zikr qiladilar. Ular

²² Bahouddin Naqshband. Avrod (avrodi boxoiya) G.Navro‘zova tarjimasi, -Buxoro, 2000. –B. 26.

illoh ismini yoki «La illaxa illoh» kalimasini ovozlari boricha baqirib aytadilar.

Masalan. Xoja Axmad YAssaviy tariqatiga e'tiqod qiluvchilar zikri ilohiyaga amal qilib ularning zikrini «zikri arra» deydilar. Bunda zikr kilayotgan odamlarning ovozlari shovqini yig'ilib, arraning yog'och kesayotgandagidek shovqin xosil bo'ladi.

Jaloliddin Rumi asos solgan mavloviya tariqatidagilar ham ana shunday yo'lni tanlaganlar. Zikri ilohiya shug'illanishga ancha qiyinchilik tug'diradi. Pedagogik yoki psixologik jihatdan kishilarga tasir ko'rsatish texnologiyasi jihatidan zikri xufiya bilan zikri ilohiya o'rtasida ham ancha o'ziga xoslikni ko'ramiz. Zikri ilohiyada birgalikda harakatlar bilan malum tariqat yoki diniy talablarni ijro etish, o'rganishda kishilarga tashqi tasir (harakat va ovoz) bilan ancha kuchli bo'lishi-kishilarni turli xolatlariga kirishi, tashqi ko'rinishi, yuz, ko'z, gavda harakatlari orqali tasir qilishi (sexrlash) mumkin. Ammo bu ijobiy texnologik tomoni uning qator salbiy jihatlarini bosa olmaydi. CHunoncha, eng avvalo baland ovoz, keskin harakatlar kishini charchatadi, undan ko'p ichki energiya, emotsiya sarflashning talab qilsa, atrofidagi kishilarga ham malum noqulayliklar (ular diqqatini o'ziga tortish, qilayotgan ish-harakatiga xalaqit beradi) tug'diradi. Zikri alohida muridlar malum bir joyga jam bo'lib, ko'pchilik tariqatni o'rganishlari lozim. Bu ham malum manoda shaxsiy qiyinchilik tug'diradi. Eng muhimi zikri alohida o'rganilishi lozim bo'lgan narsaning ko'proq zoxiriy tomoniga diqqatni jalb qiladi. Zikri xufziyada muridlarning bir joyga to'planishi shart emas. Bu jihatdan ularga tashqiliy va vaqt jihatdan qulaylik, erkinlik beriladi. Zikri amriyadagi shovqin-suron ruhiy simosiz har kim o'z imkoniyati doirasida tariqatni egallash bilan shug'ullanadi. O'z navbatida har bir murid shaxsiy-insoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ovoz chiqarmasdan o'z ichida takrorlab tariqatni egallaydi. Bu esa o'ziga va atrofidagilarga qulaylik bo'lib, uning kuchi, ovozi xissiyotlarini tegishli buysunishdir, butun borligi bilan tariqatni egallashga imkon beradi. Eng muhim bu uslub Naqshbandiya tariqati mohiyatini tashqil etuvchi alloh ilmini o'rganishda tashqi (zoxiriy) va ichki (botiniy) jihatlarning uyg'unligini ta'minlab, uni qalban o'rganish, qalbgaga naqsh qildirish-Dil bayor shiori mohiyatini anglashga zamin

hozirlaydi. Zikri xufiyada aynan Dil ba yor talabini zoxiriy-inson harakat organlari sezilarli bilish jarayonlarini aql-tafakkur - qalb izmiga bo'ysundiradi. Tashqi sokinlik ichki intilish maylni kuchaytirib, butun qalb diqqati, qo'rini o'rganilayotgan narsaga jalb qilib - dil amriga buysunishiga olib keladi. SHuning uchun Bahouddin Naqshband o'z pirlari zikri tarafdori –Amir Sayid Kulolga ulamo va darvishlarni to'plab zikri almoniyadan voz kechishini so'rab iltimos qiladi. Ammo rad javobini oladi. SHundan so'ng Hazrati Bahouddin Naqshband zikri xususiyati Abdulxoliq G'ijduvoniyan o'rganadi. O'z navbatida zikri er xufiyani Abdulxoliq G'ijduvoniyan hazratlari esa Xizr Alayxis salomdan o'rganganlarini e'tirof etadilar. «Zikri xufiya aytish ko'ngillikka qo'l kelar oddiy hunarmanddan tortib, to davlat arboblari kunduzi ishlab, kechasi bu zikr bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega edilar. Ko'ngilga podsholar, jumladan SHayboniylardan Ubaydullo Sultonning pirga qul berganlari va bu zikr bilan shug'ullanishlari xaqida ma'lumotlar bor» Naqshbandiya tariqatining ya'ni bir kishilar uchun ahamiyatli tomoni unda valiylarda karomat ko'rsatganlar, kamdankam bo'lib, sharoit taqozo qilganda, juda ehtiyot kuchli bo'lganda bemordan kasallikni o'zlariga tortib olib, so'ng bu illatni o'zlaridan chiqarib tashlaganlar. Jumladan, Xoja Muhammad Porsoning «Rashaxat», Muhammad Bokir Ibn Muhammadning «Bahouddin Balogardon» asarlarida Xoja Bahouddin xat bemorlarga va xojatmondar uchun qilgan xikmatlar haqida yozadilar. Ayniqsa Muhammad Bokir ibn Muhammadning yuqoridagi asarlarining uchinchi qismi aynan Xoja Baxouddinning avliyolik quvvatlari va ko'rsatgan karomatlariga bag'ishlanib, turish xolatlardagi karomat va g'ayri tabiiy xolatlari bayon qilinadi. Manbalarda yozilishicha boshqa suluklarda bemorlarning kasalliklarini shu yo'l bilan davolash, ya'ni uni tortib olib, qayta xaydab yuborish quvvati bo'lmagan. Manbada yozilishicha Naqshbandiya sulukidagi avliyolar karomatfuruslikka keskin qarshi bo'lganlar. Sulukda muridning asosiy maqsadi ma'naviy va ruhiy poklanish, Alloxga etishish va shundan ruhiy va ma'naviy qoniqish xosil qilish hisoblangan. Boxouddin Naqshband Hazratlari musulmonlar og'ir xolatga tushib qolganlaridagina o'zlaridagi avliyoning karomatlaridan foydalaganlar. Boshqa

xolatlarda solixlarni tariqati o'rganishga qiziqtirish, ularda adab berish, ma'lum zarur insoniy sifatini singdirish uchun bu ishga qo'l urganlar. Hazrati Bahouddin Naqshband o'z imkoniyatlari aql-zakovat hamda avliyolik quvatlarini insonlarni ma'naviy va ruhiy poklanishga xalqqa zulm va jafo qilayotganlarni insofga chaqirin, insonlarni ilmu-ma'rifatga jalb qilish kabi payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. sunnatlariga to'liq amal qilishga, islom dinini bid'atlardan tozalashga bag'ishlaganlar. SHundan bo'lsa kerak xalq ichida u kishishni «Baxouddin Balogardon» deb e'zozlanishlari xalq g'amii bilan yashab uni yashashi mehnat qilishi o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaat ko'rishga da'vat qilganlari uchun xalqimiz asrlar osha e'zozlab obro'-e'tibor, izzat-ikrom va ziyorat qilib kelmoqda. Mehnat kishilari bilan muhim ishni boshlash yoki og'ir yukni ko'targanda hozir ham «Hazrati Bahouddin Balogardon» -deb u kishi ruhidan madad so'raydilar²³.

Hazrati Xoja Bahouddin Naqshband inson sifatida xonir va kashtirin bo'lganlar. Manbada yozilishicha u kishining uylarida mol-mulk bo'lmagan. U kishi g'ariblardan yashaganlar. Masjidlarida qishda xashak bo'lardi, yozda eski buyra, singan ko'zalari bor edi. U zotda xizmatkor zoti bo'lmagan «Necha xizmatkor yollamaysiz?»deb so'raganlarida «Kulik xo'jayinlik bilan mos kelmaydi!» deb javob beradilar. Mana bu ikki bayt ulardan:

Na maro mafrash, na mafrashkash,
 Na gulomoki turku tarkakash.
 Hama shab gunn sagoni kaxdoniy,
 Sir ba dum ovaram ba jismi xvash.

Tarjimasi:

Menda na gilam bor, na farrosh,
 Na turk gulomiyu, na sangtarosh.
 Tunda men yoturman it kabi xor-zor,
 Ingrayman dumimga kuyganimra bosh.

Hazrati Bahouddin Naqshband siyrat va suvratlari so'fiylik odobiga o'ta mos

²³ Al-Buxoriy, Al-Jomiy as-Saxix Ishonarli to'plash. 1-jild. –Toshkent, 1991. –B. 36.

edi. U kishining o'z xisseyotlarini har xil xolatlarda idora qila qila olishlari, hursandligimdan ham xafagarchilikni chidam bilan eng olish xususiyati belgilovchi hisoblanadi. Musulmon odobida bu xislatga alohida e'tibor beriladi. Qur'oni Karimda xafagarchilikda qaddingni bo'kma, xurchandchilikda o'zingni yo'qotma, har ikkala xolatda ham o'rtacha yo'l topa olish muhimligi ta'kidlanadi. U kishi bilan uzoq vaqt yonma-yon yashagan muridlarining eslashiga, «ularning xazin va g'amginliklarining nixoyati yo'q edi, ularning botin xolatlari tamoman zikrga aylangan edi.» Hazrati Bahouddin Naqshband birovga mexmonga borsalar ularning barcha farzandlari va yaqinlarining ko'nglini topar va xol va ahvol so'rar edilar. Do'stlar, hamsoylar va darvish oshnolardan hamisha rozi bo'lardilar hamda ularga lutf qilardilar. Kimki u kishiga xadya olib kelsa, Hazrati Payg'ambar sunnatlariga amal qilib, unga xuddi shunday xadya tortiq qilardilar. Mol dunyoga umuman uch emas edilar. YAshash joylarida ko'rpa-yostik yo'q edi. YOtib turishlari uchun yagona bitta tomonlari bor edi. Agar manzillariga birorta do'stlari yoki biror mexmon kelib qolsa, kechqurun bo'lsa, birozgina takalluf qilingan taom keltirardilar va mexmon oldiga qo'yardilar. Aziz mexmon taomni eb bulguncha chiroqni bir nav yoqib qo'yar edilar. Mexmon uyquga ketsa, xavo sovuq bo'lsa, yagona jomalarini mexmon ustiga yopardilar. Hazrat o'ta kamtar va xalollikka e'tibor berardilar. Ayniqsa taomni halol bo'lishi uni sidqi dildan tayyorlash, ishtaxa bilan tanavvul qilish, isrof qilmaslikka juda e'tibor berardilar. Manbada yozilishicha «Bir darvish taom keltirgan bu taomni eyish bizga to'g'ri kelmaydi, negaki u g'azab ustida pishirilibdi uni elashda va hamir qorishda kimdir g'azabda ekan» dedilar. Kimki kapkirmi qozonga qattiq ura, o'sha qozondan taom emas edilar va aytardilarki :«G'azab ishtiyosizlik va g'aflat bilan qilingan har bir ishda xayr baraka bo'lmaydi, unga shayton va nafsi ashora topgan bo'ladi. Demak undan qanday yaxshi natija kutish mumkin?! YAxshi amallar va go'zal ishlar bjosining yuzaga kelishi halol taomga bog'liqdir» Naqshbandiya tariqatida inson xayoti va ijtimoiy faoliyatining gumanistik harakteri tasavvur ta'limotining mohiyatidan kelib chikadi. Garchi Naqshbandiya tariqati tasavvur ta'limotining tarmoqlaridan biri bo'lsada shu bilan birga uning eng yosh va insonparvarlik g'oyasi kuchliligi bilan ham farqlidir.

Chunki tasavvuf va uning falsafasi ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati sifatida shakllanadi. Bu oqim vakillarining diniy-falsafiy qarashlarida odamlar o'rtasida tobora chuqurlashib borayotgan tinchsizlik va adolatsizlikni qoralash, hammani o'zining halol mehnati bilan kun ko'rinishga chaqirish g'oyalari oldinga surildi. SHuning uchun Naqshbandiya tariqatida ham ijtimoiy gumanistik fikrlar ustunlik qilishining boisi ham shunda. «Naqshbandiya tariqati o'zining mohiyati, diniy-falsafiy g'oyalarning teranligi, musulmon mamlakatlaridagi tasavvuf falsafasining boshqa ko'rinishlaridan ustun turadi, deb aytsak hatto bo'lmaydi, deb yozadi Orif Usmon.» Bahouddin Naqshband ta'limotida asosiy o'rin tutgan g'oyakishilarni halol mehnat qilishga, xunar o'rganishga, o'z mehnati mevasidangina baxramand bo'lishga chaqirishdir. Bahouddin Naqshband ta'limotida asosiy o'rin olgan g'oya-«Dast bakor, dil ba yor», degan fikrdir. Qo'ling mehnatda bo'lsin, xudo dilingda bo'lsin, degan ma'noni bildiradi. Bu fikrda taqdir xaqidagi insonning butun hayoti va uning mazmuni har bir kishining peshonasiga oldindan yozib quyilish xaqidagi diniy g'oyalarga zid bo'lgan qarashlarni ko'ramiz. Bu o'rinda kishilar taqdirga ishonib loqayd bo'lishga emas, balki xunar o'rganib, mehnat qilishga chaqiriladi. Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharkshunos E.E Bertelsning yozishicha, Naqshband ta'limotining asosida ihtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi... SHunga binoan Bahouddin Naqshband umri bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'lmagan eriga bug'doy va mosh ekar ekan. U uyida hech qanday mol dunyo va boylik saqlamagan qishda ham qamishlar ustida yozda esa buyra ustida yotib kun kechirgan, uyida hech qachon xizmatkor saqlamagan. E.E Bertels yana takidlab yozganidek, Hazrati Naqshband qolgan umrini o'z xoxishi bilan fakirlik va yo'qchilikda o'tkazgan. U o'z qo'li kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini etim- esirlarga, beva-bechoralarga inom etgan, xukmdorlardan o'zini doimo yiroq tutgan va ular oldida xech qachon tamagirlik qilmagan.

Hazrati Bahouddin Naqshband taminotidan asoslangan talimot Markaziy Osiyo O'rta va YAqin SHarq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, manaviy-madaniy xayotida juda katta ahamiyat kasb etgan. Bu talimot boshqalar bilan kun kechirishni, tekinxo'rlikni, ijtimoiy zulm-sitamni qatiyan qoralaydi. Bu talimot

tarafdorlari tarki dunyochilikka qarshi bo‘lganlar, faqat o‘z qo‘l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun o‘tkazishga chaqirganlar. Naqshbandiyalar dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-marifat, xattotlik, naqqoshlik, quruvchilik va boshqa barcha foydali va xayrli yumushlar bilan kishilarni davat etganlar²⁴.

Shu bois bo‘lsa kerak o‘z davrining ilm-marifat adabiy xayotining yirik namoyondalari Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boboraxim Mashrab kabi yuzlab taraqqiyparvar shoir va mutafakkirlar Naqshbandiylik yo‘lini tanlaganlar va shu asnoda barakali ijod qilganlar. Naqshbandiya tariqatining olamshumul va har bir inson uchun ijtimoiy ahamiyati nimada degan savol tug‘iladi. Nega vaqt o‘tishi bilan odamlar uni unutmay, unga tobora yaqinlashmokka, buning boisi «Bahouddin ta’limoti o‘zidan oldingi ta’limotlardan o‘zining ijtimoiy yoki dunyoviy jihatlari bilan jiddiy va keskin ravishda ajralib» turishida, deb o‘rinli ta’kidlaydi (Orif Usmon). Naqshbandiya tariqati markazida inson, uning hayoti va kamoloti yotadi. Unda o‘zi pok, so‘zi va ishi pok to‘g‘ri so‘z xalol, yuksak axloqli, mehnatkash inson tarannum etiladi. Naqshbandiya tariqatining ahloqiy yoki insonga qulayligi har bir hudud xalqlarining qaysi tilda ko‘proq gaplashishini inobatga olishi, uning namoyondalarining jahonda keng tarqalgan fors, arab, turkiy tillarni mukammal bilishlaridir. Mazkur talimot shayxlari shuru-shakarlik, zullisonaynlik, baynalminal xususiyati bu ham uning umuminsoniy mohiyatini ko‘rsatadi. Malumki, Turkistonda turkiyzabon va forsiyzabon xalqlar yonma-yon, yaqin qo‘shni, do‘st-birodar bo‘lib yashashi Naqshbandiya tariqatida ham o‘z ifodasini topgan. Naqshbandiya tariqatining til xususiyatlari ham uni o‘rganish va o‘zlashtirishga qulayligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun bo‘lsa kerak I.A.Karimov: «asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etgan boy ma’naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk uchun intildi. Bobokalonlarimiz-Imom at-Termiziyning nomlarini fahr bilan tilga olamiz. Ulug‘ bobolarimiz Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Baxuddin Naqshband ruhi poklariga extiromlarimiz benixoya. Bugun ularning insonni etuklikka chorlovchi

²⁴ Buxoriy Sadriddin Salim. Bahouddin Naqshband yoki etti pir. - Buxoro, 2006. –B. 56.

diniy, axloqiy va huquqiy xikmatlari qaytadan boshladi» - deb takidladi. Naqshbandiya tariqati milliy va diniy qadriyatlar tizimidagi o'zni shundaki u aloxida guruh yoki maxsus tayyorlangan din peshvolari uchun emas, balki har qanday sog'lom fikr yurituvchi, halol yashashni insoniy burch hisoblangan har bir kishi ehtiyojiga mos keladi. Uning bu xususiyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Baxouddinning o'zidan boshlab, eng kichik, tariqatga endi kirib kelgan solihgacha rioya qiladigan bosh va asosiy talabi har qanday boshqa odamlarga o'xshab, ulardan o'zini ajratmasdan, halol mehnat talabi, biron kasb-xunarni yaxshi egallab, o'shaning hisobiga kun kechirish, darvishlikni tirikchilik manbai qilib olmaslikdir. Faqat solihning o'z kundalik turmushida qat'iy rioya qilish talab-qoidalarning o'zi yo'q. Hatto shialar ham, yoki tasavvufga aloqasi bo'lmagan odam ham bilish rioya qilishi ko'zda tutilgan holda ishlab chiqilgan. Ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish (odam o'ldirmaslik, ota-onani hurmat qilish, kichiklarga izzat, mehr-shavqat, zino, o'g'irlik qilmaslik vax.k.) Naqshbandiya tariqati amaliyoti talabalarning yanada universal va insonparvarlik yo'nalishi mazmuniga ega bo'lganligi ko'rsatadi. Naqshbandiya tariqati amaliyotining ba'zi maxsus talablari, masalan namoz tilovatida, luqmada xalollikka xushyor bo'lish, xudbinlikka inkor etish, tasarrufga olish, kibrdan qochish, zaruriy pul, xadya ehson qilish talabi kabilar ham asosan umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilishdan chetga chiqmagan. Bahouddin Naqshband tariqati amaliyotida xayotiy zarurat ishlarini bajarishda har bir onda xushyor bo'lish, xushi ongi o'zida bo'lish, har qanday ish, xatti-harakatini anglangan va keladigan oqibatlarning bilgan xolda amalga oshirishda o'zi ishlab chiqqan va 8 ta G'ijduvoniya rashxasiga qo'shib, Naqshbandiya tariqati ta'limoti va amaliyotini nihoyasiga etkazib, 11-ta rashxaning uchtasi «Vuqufi adadiy», «Vuqufiya zamoniy» va «Vuqufi qalbiy» talablariga qat'iy va izchil rioya qilgan, o'z tariqati solihlardan ham shunday talab qilgan. Naqshbandiya tariqati amaliyotining yana bir maxsus talabi tasavvufini, tariqatini rasmiy suniy islomga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni uyg'unlashtirish, islom, shariat qonunlari, talab-farzlari,

qoida va me'yorlariga qat'iy, izchil va ongli tarzda rioya qilish, bajarish, ular doirasidan chiqmaslik talabi ham yuqorida ko'rsatilgan umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik yo'nalish va mazmunidir.

Xulosa qilib aytganda, Naqshbandiya tariqati amaliyotining yaqqol ajralib turadigan xususiyati insonga ko'rsatadigan mexr-shavqatning faqat insonlargagina emas balki kosmologik, global iqtisodiy mehr-shavqat yo'nalishiga ega ekanligidir.

XULOSA

Naqshbandiya tariqati rashxalari insonning noyob ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan foydalanish orqali uning o'z-o'zini tarbiyalashni o'zini kuzatish, taxlil qilish, nazariy va boshqarishga erishishning o'ziga xos ruhiy-irfoniy texnologiyasi hisoblanadi. Buning oqibatida inson tabiatiga poklik, ezgulik xislatlarni xoli bo'lib, ezgu xalol, adolatli xulq-atvorni shakllantirish ruhan va qalban pokiza bo'lib, haq yo'lga islom diniy farzlarini ijro etish balki birga Alloxga yaqinlashishning yana bir muhim vositasi va rashkalarni amalga oshirish vositasi bo'lib hisoblanadi. Xufiya zikrining mazmuni tariqat rashxalari bilan o'zviy vositasi va uni maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Savol tug'ilish mumkin XXI asr axborot va yangi texnologiyalar sharoitida jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining hamma sohalari va shunga muvofiq tezlashuvi tezlar insonga ta'sir qiluvchi informatsion vositalarining kuchaygan sharoitida insonni Naqshbandiya tariqati orqali tarbiyalash mumkinmi? Bu savolga avvaldan javob berib, "Xa mumkin" deyishning bir necha jihati bor. Birinchidan, mamlakatimizning bozor munosabatlari qamrab olib, kishilar munosabatlarida moddiy narsalarning qadriyat qimmatini salmog'ining oshishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida yangi iqtisodiy munosabatlarda kishilar o'rtasidagi o'zaro orqali, beg'arazlikni kuchaytirish bilan birga g'araz kabi xislatlarini kuchayishiga kuzatilmoqda. Ikkinchidan milliy mustaqillik yoshlarda milliy ong, g'urur, ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni taqozo qiladi. Chunki milliylik istiqloq mafkurasining poydevori, mumtoz ma'naviy axloqiy merosimiz umumbashariy qadriyatlar bilan iborat mustaqillikni mustahkamlashning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, hozirgi zamon kishisi tezlik va o'ta kuchli axborot oqimida faoliyat ko'rsatishi uni ruhiy, jismoniy jihatdan toliqishga, odatlangan qadriyatlar o'zgarishi kayfiyatiga salbiy ta'sir qilib, tasalligga muhtojligini oshiradi. Hozirgi zamon fani insonni bu xolatlardan chiqarish uchun turli ijtimoiy-psixologik, pedagogik mashqlar ishlab ishlab chiqdi. Bulargina emas, bir qancha insonni o'rganuvchi psixo-diaagnostik, psixonarsistiya pedagogik tashxis kabi fanlar shakllanadi. Ammo tajriba ko'rsatadiki, bularning hammasi ham xalqimiz milliy ruhini to'la aks etmaydi. Xalqimiz mentalitsti va

uning ma'naviy olamining dinga moyilligi milliy harakterdagi uning ruhiga mos ta'sir ko'rsatuvchi treninglardan foydalanishi necha asrlardan beri ko'pgina xalqlar e'tiqod qilib kelayotgan Naqshbandiya tariqati milliyligi, mahalliligi va har qanday kishining kundalik hayot tarziga mosligi bilan kishilarga milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda muhim qurol bo'la oladi.

Hazrat Bahouddin Naqshband ta'limotining mohiyatiga chuqur tushunish, uning shaxsga ta'sir qilishining ma'naviy-axloqiy, ruhiy jihatlaridan o'rinli foydalanish, pedagogika fanini yangi ta'sirchan usullar bilan boyishiga olib keladi. Bunda masalaning nozik va murakkab tomoni mazkur tariqat mohiyati va insonga ta'sir qilish texnologiyasini anglash hisoblanadi. Hazrat Bahouddin Naqshband tariqatida bu texnologiya o'ta oddiy 11 ta rashka, va nihoyatda ular mazmuni, mohiyatini insonga ta'sir qilish imkoniyatlarini ilohiy ilm bilan bog'langanligi hozirgi zamon kishisi uchun murakkab hisoblanadi. Bahouddin Naqshband ilohiy ilmda avliyolik, valiylilik makomatiga erishganliklari uchun, laduniy ilm orqali insonning anatomii-fiziologik tuzilishini hamda ruhiy ilohiy, ma'naviy-axloqiy jihatlarini o'ta chuqur anglagan va uni o'zgartirishning texnologiyasini ishlab chiqqan. Mazkur texnologiyani hozirgi zamon kishisining tushunishini qiyinlashtiradigan yana bir jihati Qur'oni Karim va Hadisi SHariflarni hamda tasavvuf, uning irmoqlari hisoblangan tariqatlardan xabardor bo'lishi kerakligidir. SHuning uchun diniy ulamolari pedagog va psixolog, ijtimoiy fanlar namoyondalari bilan tushunarli bayon qilish usullarini ishlab chiqishlari dolzarb muammo hisoblanadi.

Naqshbandiya tariqatida hozirgi zamon kishisida go'zal axloqni tarbiya qilish, haq yo'lga chinakam xalollikka, pokiza rostgo'ylik, mexr-shavqat odamiylik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan sufiylik ta'minotini singdirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlaridan foydalanilgan. Pedagogik muxitdan insonning nozik ruhiy imkoniyatidan foydalanish orqali uning o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish, ruhiy va jismoniy boshqarish mexanizmlarini ishga solish tufayli unda ezgu sifatlarni singdirish tizimi ishlab chiqilgan. Insondagi salbiy xislatlardan xoli bo'lish, ezgu xalol, adolatli xulq-atvorni tarbiyalashda rashkalar va ularni xufiya zikr orqali amalga oshirish insonni haq yo'lga intilishi orqali o'zini poklash tizimi hisoblanadi.

Hozirda Buxoro viloyat bosh ilm xatibi Buxorodagi Hazrati Naqshband ziyoratgoh majmuasi imom xatibi xoji Abdulgʻofur Buxoriy yozadilar: «Aslida tasavvufning maqsadi ham shu inson kamoloti, kishi ruhiy va maʼnaviy jihatidan poklash va komil insonni tarbiyalash». Komil inson esa: «YUksak ongli vaa maʼnaviyatli mustaqil fikrlaydigan, jismonan va ruhan poklangan» kishidir. SHu bilan Xoji insonni ruhiy va axloqiy irfoniy tarbiyalashning «muborak rashkalar» deb ularga inson baxo beradilar.

Naqshbandiya tariqatidagi rashkalar insonni mazkur taʼlimotini egallash bosqichidagi sifatida haqni bilish sari etaklab, bir bosqichda egallangan fazilatlar ikkinchi qoidada shakllanishi lozim xislatlarni taqozo qiladigan ierarxik tuzilish kasb etgan. Bir bosqichda oʻzlashtirilgan sifatlar va ularning mexanizmi ikkinchi bosqichda mustahkamlashib insonni haq taologa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Uning ichki ruhiy-maʼnaviy olami imkoniyatlarini ochib, oddiydan murakkabiga «Men»dan «Biz»ga oʻsib utish jarayonida «Oʻzlik»ni yoʻqotish evaziga yuksakligini taʼminlaydi. Bunda inson kamoloti oʻz ichki ruhiy imkoniyatini namoyon etish, uni ruyobga chiqarish orqali oʻzini oʻzi tarbiyalab, oʻzini oʻzi takomillashtiradi. Hazrati Naqshband ustozlaridan qabul qilib olgan «safar dar vatan» (vatan ichra safar) «xush dar dam» (nafasda xushyorlik), «nazar dar qadam» (nazarni qadamdan oʻzmaslik), «xilvat dar anshuman» qoidalarini hayotga tadbiq etib ularni toʻldirib, yaxlit oʻziga xos tasavvufiy taʼlim tarbiya tizimini asosladi. Inson odamlar orasida ham oʻzini botiniy xilvatini taʼminlab, muntazam oʻz xatti-harakatini nazorat qilib turishi shart. «Nazar dar qadam» kishining doimo oʻz faoliyatini taxlil qilishi qilayotgan ishining oʻz faoliyatini taxlil qilishi, qilayotgan ishining yaxshilash va yomonlik jihatdan sunnatga mos kelishini tekshirib turishi va qadamni yomon joylarga qoʻymaslikki harakat qilishi lozim. Oʻrinsiz, nomaqbul xayotiy ehtiyojdan kelib chiqmagan sangib yurishlar kishiga zarar keltiradi. Kishi oʻzi bilmagani xolda nomaqbul ishlar ishtirokchisiga aylanadi. SHuning uchun xalqda yurgan oyoq badbuy is keltiradi, jim turgan oyoq gul keltiradi., degan naql bor. SHuningdek, tariqatning «YOdgard» (yodlash), «bozgasht» (takrorlash), «yoddasht» (eslash, esdalik) talablari ham xufiya zikrga moslashtirilgan. Bu rashkalar qadamba qadam insonni oʻzi oʻzini bilish bosqichlari sifatida uni axloqiy pokligini taʼminlagan

bilan birga gnoseologik mohiyatga ham ega. Garchi ko'pgina adabiyotlarda ular axloqiy poklanish, ruhiy tozalanish deb talqin qilinsada o'z navbatida insonni o'zini bilib allohni tanish, uning vasliga etish vositasi hamdir. Bularni Xoji Abdulg'afur Razoq Buxoriy muborak rashxalar deb ta'riflagan. Ularning muborakligiga inson qalbini poklovchi va o'zini bilishining kuchli ruhiy-irfoniy yo'li ekanligidir. Insonni ruhiy holatini o'zgartirib jismini illatlardan xoli qilib o'zini bilish orqali oliy maqsadga erishish yo'li. Bu jihatdan ular ham axloqiy-irfoniy ham gnoseologik ya'ni insonni o'z tabiatini bilish vositasidir. Rashxalar tomchi-tomchi ya'ni asta sekin insonni tariqat girdobiga tortib, uni qalbini tomchilab tozalashdan sel kabi buyuk o'zgartiruvchi pulga aylanadi. Bu erda biz ularning yana bir funksiyasini inson tabiatiga irfoniy ta'sir kuchini ko'ramiz. Demak, ular axloqiy irfoniy, gnoseologik vazifalarni amalga oshiradi. Biz tadqiqotimizning maqsad va vazifalari, ilmiy farazi va metodlaridan kelib chiqib ilmiy tadqiqotda qabul qilingan tarixiy va mantiqiylik hamda dialektikaning umumiydan xususiylikka qarab borish tamoyillari asosida ish ko'rdik. Mazkur tamoyillarni amalga oshirish ishda dastlab umumnazariy, g'oyaviy asosni aniqlash va undagi texnologiyani aniqlash orqali amalga oshirildi. Jumladan, avval biz mumtoz merosimiz nazariy-g'oyaviy asosi hisoblangan Qur'oni va Hadislar va ular asosida yozilgan asarlarning e'tiqodiy asoslarini imon, ixlos, ishonch e'tiqod masalalarini tadqiq qildik. Chunki «Chor kitob», «Avesto», Qur'on, Payg'ambar sunnatlaridan imon, ezgulik masalalariga to'xtaldik. So'ngra bular asosida yuzaga kelgan tariqat Naqshbandiya ta'limoti va buyuk zotlar Alisher Navoiy, «Qobusnoma» kabi asarlarda imon e'tiqod muammolarini yoritdik. Imon e'tiqod kishilarni sexrovchi mo'jiza bo'lishi bilan birga, g'oya e'tiqodni singdirish vositalari so'z bilan ta'sir etish texnologiyasining nozik jihatlarini asosli misollarda yoritib, ilmiy ishimiz umumpoydevorini yaratdik so'ng ish poydevor-nazariy-g'oyaviy asosga tayanib, mumtoz merosimizda ta'lim-tarbiyani tashqil qilish texnologiyalarini izlashga va asoslashga kirishdik. Mumtoz merosimizda ta'lim tarbiyaning tamal toshi xalollik, poklik, axloqiy barkamollik mehnat qilish halol yashash o'z-o'zini takomillashtirish ekanligiga e'tiqod keltirdik.

Milliy merosimizning g'oyaviy-texnologik asoslarini tadqiq qilish Bahouddin Naqshband tariqatining ijtimoiy mohiyati-insonlar uchun foydali, ularni oxangrabo kabi o'ziga tortuvchi siru asrorini aniqlash imkoniyatini berdi. Mazkur tariqatning oxangrabolik kuvvan xofizasi uning mazmun-mohiyati oddiy kishilarning yashash tarziga yaqinlashish, ularni halol yashab, mehnat bilan rizq-ro'zisini topib Alloh oldida bandalik burchini ado etish, ya'ni bandalik majburiyati toat-ibodatni kundalik insoniy burch bilan uyg'un olib borishdaligiga ishonch xosil qildik. Naqshbandiya tariqatining insoniy va ijtimoiy mohiyatini tadqiq qilish uning boshqa mavjud ko'pgina tariqatlardan farzi-o'ziga mosligini o'ziga xos psixologiyasini ochish imkoniyatini berdi. SHulardan so'ng tanlagan tamoyilimiz-umumiydan xususiyga borish asosida Naqshbandiya tariqatini o'rgatish va o'rganish yoki ustoz shogird munosabatlari texnologiyaini tadqiq qildik. Bunda muridni tariqatga o'rgatishning umumiy g'oyaviy asoslari yohud pir murid munosabatlarining asoslari taxlil qilindi. Tariqatni o'rganishni umumiy asoslari esa, Naqshbandiya tariqati irfoniy-ilohiy asoslari hisoblangan rashkalarining insonga ta'sir qilish texnologiyasi tadqiq qilindi.

Tariqat vositasida kishilarni o'z-o'zini tarbiyalash masalasini quyari ekanmiz uni qanday qachon va nimalar vositasida amalga oshirirsh, muammosi ko'ndalang bo'lib koladi?. Fikrimizcha, bu kelajakdagi ishlar mazmunini tashkil etadi. Biz mazkur tariqatimizda zamona ruhidan kelib chikib, Naqshbandiya tariqatining insonga sehrli ta'sir qilish sirlari yoki texnologiyasini baxoli qudrat tadqiq qildik. Olib borilgan tadqiqot quyidagi ilmiy xulosa va tavsiyalar qilishga asos bo'la oladi. Mumtoz merosimiz, jumladan Naqshbandiya tariqatining ham g'oyaviy asosi Qur'on va Hadislarda bayon qilingan iymon-e'tiqod va shu asosidagi ezgulik, kamollik, poklik, halol mehnat qilish tufayli halol rizq topish bo'lib hisoblanadi. Kishilarni ezgulik, imon, e'tiqod ruhida tarbiyalashda ta'sirchan texnologiya so'z san'ati hisoblanadi. So'z (nutq) insonga berilgan ilohiy in'om sifatida shaxsni tarbiyalashning eng kuchli vositasi, kishilarni bir-birini tushunishi, qadriyatlarni ularga singdirish vositasi hamdir. Bu muhim vositadan Naqshbandiya tariqati pirlari ham moxirona foydalaganlar. Xoja Ali Rometaniy me'yorida so'zlash

axloqli kishi fazilati ekanini ta'kidlagan edi. Mumtoz merosimizda ta'lim-tarbiyani tashqil qilishining texnologik asosi g'oyaviylik, uni asosini esa hamollik, axloqiy tashkil etadi. Milliy merosimizda, jumladan, tasavvufda insonni tarbiyalashning asosiy shakli o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bunda tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti ham insonning o'zi bo'lib, imom e'tiqodi asosida mutasil o'zini takomillashtiradi. Naqshbandiya tariqati insonni o'z o'zini uning rashxa va usullaridan foydalanib, yuksak takomillashtirishning amaliy-nazorat asosidir. SHu bilan birga tariqat ruknlarini bajara turib halol yashash, mehnat kilish va fuqarolik majburiyatlarini bajarishga undaydi. Uning ijtimoiy mohiyati insonni moddiy dunyoda yashashini osonlashtirib, ma'naviy-axloqiy poklikka erishib, Alloh bilan yaqinlashish, dunyo azob-iztiroblarini toat-ibodat bilan engish, Naqshbandiya tariqati markazida inson turadi. Uning kamolotini ta'minlovchi «vird» lar, «avrad» lar va rashxalar yotadi. Ularni algoritmik takrorlash oqibatida bosqichma-bosqich muridning insonni fazilatlari go'zallashib, tariqat asoslarini egallaydi. Tariqat usul va vositalaridan o'rinli va ta'sirli foydalanishda purning o'rni beqiyosdir. Pir o'zining shaxsiy-axloqiy fazilatlari bilan muridga ta'sir ko'rsatish bilan birga zikr, suhbat va avliyolik karomatlaridan foydalanadi. Zikr va suhbat shogirdga tariqatni o'rgantishining ta'sirchan texnologiyasi sifatida, uning mohiyatini o'rganishni ko'nikma va malakalar darajasiga etkazib, avtomatlashib ong osti , ya'ni o'z-o'zidan zikrni bajarishga asos bo'ladi. Naqshbandiya tariqatini muridga o'rgatishda uni zoxiriy va botiniy tayyorlash yuqori bosqich bo'lib, muridni pir darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi. Zoxiriy va botiniy tarbiyalashning o'zining bosqich va vositalari mavjud bo'lib, ular muridni zoxiriy va botiniy poklashga asosiy vosita hisoblanadi. Naqshbandiya tariqati pirlari insonni tarbiyalashni o'sha davr uchun fanda ma'lum bo'lmagan, hozirgi zamon fani ochgan pedagogik, psixologik treninglar, tafakkurning meditatsiya shakllarini tariqat mazmuni, maqsadi, shakliga vobasta rashka, zikr, suhbat pir raxnamoligiga asoslangan emperik, ilmiy-amaliy bilimlar va laduniy ilm asosida amalga oshirganlar.

Yuqorida chiqarilgan xulosalar asosida quyidagi **tavsiyalarni** beramiz:

1. Bahouddin Naqshband ta'limiy-ahloqiy me'rosini o'rganishning yaxlit

tizimini ishlab chiqish maqsadida islomshunos, ruhshunos hamda pedagog olimlar o'rtasida ijodiy xamkorlikni qaror toptirish.

2. Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy merosini o'rganilishining falsafiy, pedagogik, tarixiy jihatlariga doir o'quv qo'llanmalari va metodik tavsiyanomalar yaratish.

3. Barkamol inson tarbiyasida dil pokligi, qalbni sog'lomlashtirish, uni toza, pok, ezgu niyat, mehr-muruvvat bilan yo'g'rilgan, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish texnologiyasini ishlab chiqish.

4. O'qituvchi, o'quvchi va talabalar tomonidan Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy merosini chuqur o'rganishini ta'minlash maqsadida Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati, shuningdek, qarashlari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy seminarlarni tashkil etish.

5. Ustoz-shogird tarbiya yo'nalishidagi faoliyatni mustahkamlash, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

6. Ta'lim-tarbiya jarayonida ibrat va namuna maktabini yaratish. Bahouddin Naqshband kabi barkamol insonlarni ustoz sifatida ibrat qilib, tarbiya jarayonida foydalanish.

7. Bahouddin Naqshband va barkamol inson, Bahouddin Naqshband va ma'naviyat ruknidagi ko'rgazmali qurollar majmuini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -Toshkent: O'zbekiston, 1995 yil. – 128 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997. – 356 b.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -Toshkent: O'zbekiston. 1999. – 98 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008 yil. – 148 b.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001. – 206 b.
6. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili–buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
9. Karimov I. A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
10. Karimov I.A. Mustaqillik–barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.
11. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish–yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. O'zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
12. Karimov I.A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O'zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so'zlagan nutqi. O'zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
 14. Ta'lim to'g'risida konun «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli to'plamda. -Toshkent, 1998. – 196 b.
 15. Abul Muxsin Muhammad Bokir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon. - Toshkent: Yozuvchi, 1993. – 148 b.
 16. Abu Iso Muhammad At-Termiziy. Sunai Termiziy (Hadis to'plami). 1-jild. - Toshkent: Adolat, 1999. – 163 b.
 17. Al-Buxoriy, Al-Jomiy as-Saxix (Ishonarli to'plash. 1-jild. –Toshkent, 1991. – 456 b.
 18. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Asarlar to'plami 17-tom. -Toshkent: Fan, 2001. – 236 b.
 19. Bahouddin Naqshband. Avrod (avrodi boxoiya) G.Navro'zova tarjimasini, - Buxoro, 2000 yil. – 234 b.
 20. Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki etti pir. Buxoro, 2006. – 149 b.
 21. Buxoriy Xoji Abdulg'afur Razoq. Tariqatga yo'llanma (Naqshbandiya ta'limoti asosidir). -Toshkent: Movarounnahr, 2003. – 47 b.
 22. Voxidov R. Lug'at va hadislarda iymon talqini. Pedagogik maxorat, 2001, 1-son.
 23. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov YU. Ulug' Xojaning ibrat va xikmatlari. Pedagogik maxorat, 2005, 1-son.

24. Durдона Mir Kulol vash oxi Naqshband makomatlari. - Toshkent, 1993. – 69 b.
25. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ayrim masalalari, Mas'ul muharrir prof. K.Zaripov. -Buxoro, 1994. – 126 b.
26. Zaripov K. Ta'lim-tarbiyada Qur'oni Karim va hadislardan foydalanish. - Buxoro, 1999. – 456 b.
27. Zaripova G.K. Bahouddin Naqshband ta'limotida tarbiyaning o'ziga xos texnologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Buxoro, 2006. – 456 b.
28. Idris SHox. Naqshband Tariqati. -Toshkent, 1993. – 147 b.
29. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. -Toshkent, 1996. – 124 b.
30. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf xaqida tasavvur. -Toshkent, 2004. – 68 b.
31. Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. -Toshkent: Fan, 2005. – 245 b.
32. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni. Makomati Yusuf Hamadoni. - Toshkent, 2003. – 189 b.
33. Qur'oni Karim. -Toshkent: Cho'lpon, 1992. – 248 b.
34. www.ziyonet.uz.
35. www.lex.uz.
36. www.ziyo.uz.
37. www.olan.uz.